

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O‘ZBEK FILOLOGIYASI KAFEDRASI

**“O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA AN’ANA VA QADRIYATLAR
TALQINI”**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: «O‘zbek filologiyasi» ta’lim
yo‘nalishi bitiruvchisi
Sharipbaeva Mubarak_____

ILMIY RAHBAR:
f.f.n. Duysenbayev O._____

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o‘tdi.
____-sonli bayonnomasi «____» may 2014 yil

Nukus- 2014

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI HIMOIYAGA TAVSIYA
QILINADI:**

Fakultet dekani:

dots. Abdullaev H.

Kafedra mudiri:

dots. Bobojonov F.

Ilmiy rahbar:

f.f.n. Duysenbayev O.

DAK Q A R O R I:

**SHARIPBAYEVA MUBARAKning “O‘tkir Hoshimov asarlarida
an’ana va qadriyatlar talqini”** mavzusidagi bitiruv-malakaviy ishiga Davlat
attestatsiyasi komissiyasi qarori bilan « » ball qo‘yilsin.

DAK kotibi:

Qlichev N.

REJA:

KIRISH

**I BOB. IJODKOR IDEALI VA MILLIY QADRIYATLAR
MUNOSABATI**

**I BOB. MILLIY AN'ANALAR TASVIRI VA UNING OBRAZ
XARAKTERI TAKOMILIDAGI BADIY FUNKSIYASI**

UMUMIY XULOSALAR

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, xalqimiz o'z o'tmishi, milliy qadriyatlariga munosabatlarini tubdan o'zgartirishga kirishdi. Chunki salkam bir yarim asr davom etgan mustabidlik iskanjasida millatning o'zligini tayin etadigan milliy qadriyatlar va urf-odatlar turmushimizdan bir qadar chekingan edi.

Milliy istiqlol tufayli ma'naviy qadriyatlarimizni qayta kashf etib, ularni millat turmushidagi beqiyos o'rni va ahamiyatini tobora teran o'rgana boshladik. Milliy qadriyatlar va urf-odatlarimizning xalqimiz shuurida tutgan o'rnini xolis baholash imkonini qo'lga kiritdik.

Millat sajiyasidagi o'zgarishlar eng avvalo badiiy adabiyotda aks etgani kabi, xalqimizga xos qadriyatlar va urf-odatlarning milliy adabiyotdagi in'ikosi, umumestetik miqyosda bajaradigan funksiyalarini belgilab berish hozirgi adabiyotshunoslikning ustuvor masalalaridan biridir. Zero, Prezidentimiz I.Karimov yozganlaridek, «...xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishda **milliy urf-odatlarimiz** va ularning zamirida mujassam bo'lgan mehr-oqibat, insonni ulug'lash, tinch va osoyishta hayot, do'stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birgalashib hal qilish kabi ibratli **qadriyatlar** tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda»¹.

O'zbek romanchiligining taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan adiblardan biri, iste'dodli yozuvchi O'tkir Hoshimovdir. Adabiyot insonning ma'naviy olamini yuksalishiga bivosita xizmat qiladi. Bu haqida Prezident I.A. Karimov alohida qayt etganidek: "Bir so'z bilan aytganda, xalqimiz adabiyotni muqaddas va ulug' bir dargoh deb biladi. Ana shunday bahoning o'zi el-yurtimiz hayotida bu soha namoyondalariga, ularning haqqoniy so'zi, chuqur ma'noli asarlariga ishonch, hurmat-e'tibor va ehtirom azaldan yuksak darajaga ko'tarilganini yaqqol ko'rsatib turibdi"².

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият —енгилмас куч. —Т.: Маънавият, 2008. 96-бет.

² I.A.Karimov. Adabiyotga e'tibor- ma'naviyotga, kelajakka e'tibor. —Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2009. 7-bet.

O'zbek adabiyotining keyingi yarim asrlik taraqqiyotida, ayniqsa prozachilik rivojida taniqli adib O'tkir Hoshimovning ham munosib hissasi bor. Uning yuzdan ortiq hikoyalari, o'nlab qissalari, millatimizning yaqin o'tmishi va bugungi hayotini bor murakkabliklari bilan tasvirlagan uchta romani nafaqat o'zbek kitobxonlari, balki jahondagi ko'pgina adabiyot muhiblariga tanish. Biz mazkur malakaviy ishimizda ana shu ardoli adabimiz asarlari misolida o'zbek xalqiga xos milliy urf-odatlar va qadriyatlarning badiiy tafsilotlarini o'rganishni maqsad qildik.

Taniqli adabiyotshunos U.Nomatov o'zining «Umidbaxsh tamoyillar» kitobida shunday yozgan edi: «...istiqlol yillarida sho'rolar davrida ijod qilgan ko'pgina yozuvchilar o'zlarining avval yaratgan asarlarini mutaqilliy mafkurasi nuqtai nazaridan qayta tahrir etishga majbur bo'ldilar. Ammo O'tkir Hoshimov asarlari bunday tahrirlarga ehtiyoj sezmedi»³. Haqiqatan, O'tkir Hoshimov ilk ijodidan boshlab o'sha davrlarda panja orasidan qaralgan masala –millat ma'naviyatiga daxldor muammolarga diqqat qaratdi va yetuk ijodkor sifatida e'tirof etilgan paytlarida ham bu mavzu ijodining markaziy nuqtasi bo'ldi.

Adib dastlabki yillarda o'z asarlarida, asosan, yoshlarning ma'naviy olamiga, ularning qiziqishlari-yu orzu-armonlarini tasvirladi. O'zbek adabiyotida 60-yillar vakillaridan birinchilar qatorida O'tkir Hoshimov inson ichki olami, ma'naviy dunyosi sarhadlariga diqqatni qaratdi. Asarlaridagi quyma obrazlar orqali ijtimoiy masalalar bilan birga ma'naviyatga, millatimizning asrlar bo'yi saqlab kelgan va avlodlarga meros qilib qoldiradigan milliy an'analarimiz hamda qadriyatlarmizni tasvirlashga harakat qildi.

O'zbek adabiyotshunosligida milliy ana'analar va qadriyatlar talqiniga doir bir qancha ishlar qilingan. U.Normatov, N.Karimov, G'.Mo'minov, M.Jo'rayev singari olimlarning bir qator maqolalari mavjud. Biroq bu ishlarning hech birida qahramon va milliy qadriyatlar munosabatlari izchil o'rganilmagan.

Endi aynan, O'tkir Hoshimov ijodiga kelsak, adib izlanishlariga doir dissertatsiyalar yozilgan. Masalan, tadqiqotchi G.Imomova nomzodlik

³ Норматов У. Умидбахш тамойиллар. –Т.: Маънавият, 2000. 27-бет.

dissertatsiyasida⁴ yozuvchi ijodi asosan, badiiy nutq tabiati, monologik ongning xarakterologik tadrijda tutgan oʻrni masalasini oʻrganadi. Unda tipik milliy sharoit qahramon psixologiyasini belgilab berishi, til birliklarining uslubiy taomillarga oʻrindoshlik qilishi Oʻ.Hoshimov asarlari misolida tadqiq etiladi. M.Imomkarimova tadqiqotida⁵ esa xalq ogʻzaki ijodining yozma adabiyotga munosabati hamda ifodalanish tarzi xususida soʻz boradi. Ishdagi ayrim nuqtalar mavzuimiz doirasidagi muammolar bilan toʻqnashadi. Biroq bu nazariy manbalarning hech birida Oʻ.Hoshimov ijodi misolida xarakter va milliy qadriyatlar munosabati, milliy anʼanalarning qahramon ruhiyatini ochishdagi badiiy vazifalari maxsus oʻrganilmagan.

Oʻzbek romanchiligining taraqqiyotiga katta hissa qoʻshgan adiblardan biri, isteʼdodli yozuvchi Oʻtkir Hoshimovdir. Adabiyot insonning maʼnaviy olamini yuksalishiga bivosita xizmat qiladi. Bu haqida Prezident I.A. Karimov alohida qayt etganidek: “Bir soʻz bilan aytganda, xalqimiz adabiyotni muqaddas va ulugʻ bir dargoh deb biladi. Ana shunday bahoning oʻzi el-yurtimiz hayotida bu soha namoyondalariga, ularning haqqoniy soʻzi, chuqur maʼnoli asarlariga ishonch, hurmat-eʼtibor va ehtirom azaldan yuksak darajaga koʻtarilganini yaqqol koʻrsatib turibdi”⁶.

Bitiruv-malakaviy ishda Oʻtkir Hoshimov asarlarida milliy urf-odatlar va qadriyatlar talqini masalasi, ularning badiiy asardagi vazifalari, yozuvchining milliy anʼanalar tasviridagi oʻziga xosliklari, millat maʼnaviyatida tutgan oʻrni va ularning badiiy inkishofi koʻrsatib beriladi. Shuningdek, Oʻ.Hoshimov asarlarida obraz badiiy evolyutsiyasining oʻziga xosliklarini oʻrganish, qahramon ruhiyati masalasi nazariy jihatdan umumlashtiriladi. Ushbu maqsadga erishish esa quyidagi vazifalarni ado etishni taqozo etadi:

- Oʻ.Hoshimovning ijodida milliy anʼanalar talqini va badiiylkdagi oʻrnini aniqlash;

⁴ Имомова Г.М. Типик миллий характер яратишда бадий нутқнинг роли: Филол. фанлари номзоди дисс. - Т.: ЎзФА ТАИ, 1994.

⁵ Имомкаримова М. Ў.Ҳошимов асарларида миллий қадриятлар талқини: Филол.фанлари номзоди дисс. -Т.: ЎзФА ТАИ, 2004.

⁶I.A.Karimov. Adabiyotga eʼtibor- maʼnaviyotga, kelajakka eʼtibor. –Toshkent, “Oʻzbekiston” nashriyoti, 2009. 7-bet.

-milliy qadriyatlar va ma'naviyat talqinida nutqiy maneralarning vazifaviy o'rni va ahamiyatini belgilash;

-qadriyatlar va adabiy qahramon munosabatlari muammosini ilmiy izohlash;

-yozuvchi ijordida inson ruhiyati qirralarini qadriyatlar sathida tasvirlashning asosiy tendensiyalarini belgilash;

-qahramon axloqiy pozitsiyalarini shakllantirishdagi psixologik mantiqni asoslash;

- adabiy qahramon obrazini tasvirlashda adibning uslubiy o'ziga xosligi namoyon bo'lishi qonuniyatlarini aniqlash.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosini O'zR Prezidenti I.A.Karimovning milliy mafkura, milliy g'oya va milliy ruh masalalariga to'xtalangan asarlari tashkil etadi. Malakaviy ish oldiga qo'yilgan muammolarni hal qilishda jahon va o'zbek adabiyotshunosligidagi davr va adabiy qahramon, milliy ruh va ruhiyat, tafsilot va talqin, obraz yaratish bilan bog'liq ilmiy-nazariy qarashlarga tayanib ish yuritdik. Xususan, S.Antonov, L.Ginzburg, A.Veselovskiy, B.Moran hamda o'zbek adabiyotshunoslaridan A.Alimuhammedov, M.Qo'shchonov, N.Karimov, U.Normatov, N.Rahimjonov, A.Rasulov, B.Nazarov, N.Vladimirova, H.Umurov, H.Karimov, S.Meliev, Q.Yo'ldoshev, D.Quronov, U.Jo'raqulov, U.Hamdamlarning hikoya janri nazariyasi, adabiy qahramon ruhiyati va badiiy asar tahlillariga bag'ishlangan ilmiy-nazariy qarashlari, fikrlari ishning nazariy asosini ta'minlaydi.

Tadqiqotning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki asosiy bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, ____ sahifani tashkil etadi.

I BOB. IJODKOR IDEALI VA MILLIY QADRIYATLAR MUNOSABATI

O'tkir Hoshimov olamning go'zalligi, insoniyatning shu go'zallikka munosabatini, gumanizm mohiyati va qadr-qimmatini butun ijodi badiiy to'qimalariga yoyilib ketgan milliy ma'naviyat ifodasiga singdiradi. Odamzodning ruhiy barkamolligi, ezgu maqsadi haqida falsafiy teran tasvir yo'nalishi adib dunyoqarashi va nazariy tasavvuri kengligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham ijodkorning har bir asarida xoh u kichik janr bo'lsin, xoh yirik hajmli badiiy polotno bo'lsin, e'tiqod, oqibat va mehr-muhabbat tushunchalari talqini markaziy chiziqni tashkil etadi. To'g'rirog'i, sog'lom e'tiqod qahramon xarakterining uzviy qismiga aylanadi. Tasvirdagi ravshanlik esa aynan kichikdan kattaga, xususiy hodisalardan hayotiy umumlashmalarga intilishga moyillikning kuchliligi bilan izohlanadi. O'z navbatida, yozuvchi g'oyaviy munosabati xalq ruhiyati, milliy urf-odatlarini atroflicha tahlil qilish vositasida oydinlashadi. Bu munosabat insoniyat kelajagiga ishonch bilan qarash, uni idrok etish va tushunish nuqtai nazaridan uslubiy yaxlitlik kasb etadi. Aslida uslubning asl mazmuni ham millat irodasi va maqsad-intilishlarini chuqur o'zlashtirishga borib taqaladi. Chunki mazkur tushuncha xarakterli belgini axtarish va unga urg'u berish mushtarakligidan oziqlanadi.

O'tkir Hoshimov «Cho'l havosi» qissasini yaratgandan so'ng uning kelajakda o'zbek nasrining darg'alaridan biri bo'lishi bashorat qilina boshlandi. Xususan, A.Qahhorning samimiy tilaklari bilan yo'llangan maktubida yozuvchi ijodiy kelajagiga ishonch ruhi aks etgan. Asar janr jihatidan o'ziga xoslikka ega bo'lib sujet chizig'ini qahramon xatlari va unda tasvirlangan voqealar munosabati tashkil etadi. Garchand g'oyaviy mundarija sotsialistik realizm talablari asosiga (qo'riq yerlarni o'zlashtirish) qurilgan bo'lsa-da, qissa shakliy ishlanishlar yo'lidagi dastlabki qadam bo'lib, ijodkor uslubi shakllanishida muhim o'rin tutadi. Keyinchalik badiiy shakl va falsafiy uyg'unlik adib ijodiy manerasining yetakchi atributi darajasiga ko'tariladi.

1966-yilda yaratilgan «Odamlar nima derkin» qissasi ikki sevishtan: G'ayrat va Nilufarning taqdiridan bahs yuritadi. Ikkala yosh ham talaba, ular o'rtasidagi samimiy munosabat ancha chuqurlashgan. Biroq, tadqiq sahniga ko'tarilgan muhabbat hayotiy to'siqlarga duch keladi. Nilufarning hayotda hech kamchiligi yo'q, o'ziga to'q xonadon farzandi hisoblanadi. Faqat uning qalbida kamchilik mavjud: onasi erta vafot etgan. To'rt-besh yoshligidan o'gay ona qo'lida tarbiya olgan. Garchi ayol bor mehr-muhabbatini baxshida etsa ham, baribir tuqqan onaning o'rnini bosa olmaydi. Aynan shu vajdan qizning doimo mahzun, ma'yus holatda tasvirlanishi tabiiydek taassurot uyg'otadi. Dadasi esa uni bir zootexnik qarindoshiga uzatmoqchi. Shunda Nilufar sevgilisi G'ayratga shunday deydi: «Onam bo'lganida shunaqa gaplarni eshitmasmidim, -dedi u anchadan keyin o'kinib, -Onamni es-es taniyman. To'rt yoshimdami, besh yoshimdami o'lib ketgan»⁷. Ayon bo'lyaptiki, muallif o'z asarida ona va bola munosabati to'g'risida dastlabki tezisni ilgari suradi. Nisbatan keyinroq yozilgan «Odam ovozi» hikoyasida ona qiyofasi asosiy planga chiqadi. Matbuotda jiddiy bahs-munozaralarga sabab bo'lgan bu asar bir qarashda, sotsialistik realizm metodiga asoslangan holda yozilgan bo'lsa-da, unda hukmron mafkura qoliplariga to'g'ri kelmaydigan jihatlar bor. Adabiyotshunos olim M.Sultonova yozadi: «Mastura xolaning (hikoya qahramoni -Sh.M.) yolg'iz qolishga faqat o'zi aybdor. Axir

⁷ Хошимов Ў. Одамлар нима деркин. –Т.: F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, -1966. –Б. 38.

Yevropa adabiyotida yolgʻizlik fojiasi katta sotsial fojia sifatida talqin qilinayotgan bir pallada bizda yolgʻizlik tushunchasining nisbiy ekanligi, bunday fojialar chiqib kelishi mumkin emasligini qattiqroq taʼkidlash ham mumkin edi»⁸.

Darhaqiqat, shu davr adabiyoti tamoyillariga zid taʼsir usuli eʼtiroz tugʻdirishi mumkin: Mastura xola feʼl-atvorida gʻalati qarama-qarshilik mavjud. Biroq muallifning maqsadi oddiy oʻzbek ayolining mustahkam iymoni, barqaror eʼtiqodini koʻrsatishga yoʻnaltirilgan. Aynan qahramonning eski uyini tashlab ketmasligi ham mazkur xususiyatlar bilan bogʻliq. Birinchidan, uy marhum eriga boʻlgan cheksiz muhabbati, sadoqati timsoli. Ikkinchidan, ayol ilk goʻdak yigʻisini shu xonadonda eshitgan, farzand tuygʻusini shu yerda his qilgan. Ona va bola oʻrtasidagi mehr-muruvvat rishtalari milliy mentalitetimizning oʻzagini tashkil etishini hisobga olsak, Mastura xolaning telbavor xatti-harakatlari mohiyati oydinlashadi. Hikoyada ona qalbida yashirin samimiy tuygʻular silsilasi ijtimoiy meʼyorlarni tan olmaydi. Toʻgʻrirogʻi, Mastura xola jamiyatning baxtli yoki baxtsiz aʼzosi ekanligi taʼkidlanmayapti, balki shaxs quvonch-iztiroblari, his-tuygʻulari ikkinchi planga chiqib qolganligi illat sifatida baholanyapti. Shu nuqtai nazardan M.Sultonovanning daʼvosi bir yoqlama va torroq mulohazani ifodalaydi. Prof. O.SHarafiddinov Oʻ.Hoshimov asarlarini jozibador qilgan, ularga oʻziga xos badiiy tarovat baxsh etgan ikki xususiyatini koʻrsatadi. Ulardan biri, adib badiiy asarni yengil targʻibot vintchasiga aylantirmasligi boʻlsa, ikkinchisi, asardan kelib chiqadigan muammolarning hammasi eng murakkab savollarga javob izlash kishini hayajonga soluvchi yuksak badiiy shakllarda amalga oshirilishidir. Taniqli adabiyotshunosning mulohazalarini toʻldirgan holda aytish mumkinki, lirik hissiyot koʻlami adib izlanishlarining tabiiyligi yuzaki bayon, sxematik ifodadan xoli boʻlishini taʼminlaydi. Shaklning oʻzgaruvchan tabiati ehtirosning yuqori pardalarda berilishi bilan uygʻunlashib Oʻ.Hoshimov ijodining badiiy yaxlitligini taʼminlaydi.

Yetmishinchi yillarga kelib adib izlanishlarida ijtimoiy munosabatlar tahlili teranlasha boshladi. Bu teranlik “notarixiy” shaxslar tasviridan oddiy insoniy

⁸ Султонова М. Оила ва ёзувчи позицияси. //Ўзбек тили ва адабиёти журнали. –1980. -№5. –Б. 35.

munosabatlar ifodasiga o'tish orqali quyuqlashgan. Endi ijodkor odamzodning jamiyatga ta'sirini emas, balki jamiyatning inson turmush tarziga bosimini ijod madaniyati markaziga ko'tardi. Ayni paytda milliylik belgilari "ko'zga ko'rinmas a'zolar"da ko'proq uyg'unlashishini e'tiborga olsak, yozuvchi pozitsiyasining xalqchillik nuqtalari bir qadar ayon bo'ladi. Insoniy munosabatlar birligi, optimistik kayfiyat belgilari O'.Hoshimovning barcha asarlarida qizil ip bo'lib o'tadi. Jumladan, 1972-yilda yaratilgan "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasi lirik ifoda va epik ko'lam mushtarakligini aks ettiradi. Aslida ruhiy hissiyot ikki usul: sog'lom e'tiqod va ijtimoiy tartibot darajasi birligiga borib taqaladi. Bu rishtalardan biri uzilsa-chi? Mazkur holatda odamzod hayoti butunlay izdan chiqadi. Shu nuqtai nazardan adib millatning oliy ideallarini turfa nuqtalarda namoyon qilishga urinadi. O'z navbatida milliy ruh, xarakter mukammalligi mezon o'lchovi darajasini ifodalaydi.

Hikoya ikkinchi jahon urushining insoniyat turmush tarziga, jumladan, millat psixologiyasiga ta'sirini aks ettiradi. Yangicha aspektda yoritilgan asarda katta axloqiy-falsafiy muammoning gumanistik mohiyati badiiy niyatni yuzaga chiqaradi. Ayniqsa, xarakter mantig'i, qahramon ruhiyatini yoritish vositasida adib teran ijtimoiy umumlashmalar yaratadi. Mazkur xususiyatlar – ichki nutq, xatti-harakat, situatsiyalar, badiiy shtrixlar, hayotiy tafsilotlar birligi tarzida epik makon kategoriyasidan oziqlanadi. Asosiy qahramon –Umri xolaning ikki o'g'li bor. Kattasi Shoikrom o'z oilasi bilan alohida yashaydi. Kichik o'g'il Shone'mat sil dardiga chalingan. Tabib unga qo'y suti buyurgan, lekin ona o'z farzandiga sut olib berishga qodir emas. Shoikromning topgan-tutgani ham o'z oilasidan ortmaydi. Ustiga-ustak erta bahorda xonadon koriga yarab turgan sigir ham o'g'irlab ketilgan. Voqealar dramatizmi XX asrning 45-yili ko'klamida sodir bo'ladi. Sho'rlik onaning qalbi bolaga sut topib berish istagi bilan yonadi. Hatto bu borada mavjud imkonsizlik, nochor ahvol ayolning o'g'irlik qilishiga ham monelik etmaydi. To'g'ri, katta farzand qulupnayidan so'rab olinsa ham bo'lardi, lekin, birinchidan, qaynona kelinidan iymanadi. Ikkinchidan, o'zaro munosabatlar ham risoladagiday emas. Chunki bir gal kelin Umri xolaga «bobillab bergan». Asar

davomida kuzatiladigan tushkun kayfiyat ustuvorligi alamzada o'g'ilning qarori yordamida fojiaiy nuqtaga ko'tariladi. Shu o'rinda Umri xola va Shoikrom xatti-harakatlaridagi o'xshashlik kitobxonni ajablantirmaydi. Ona o'g'rilik qilish katta gunoh ekanini o'ylab ko'rmaganidek, farzand ham birovning joniga qasd qilish salbiy illat ekanini tushunishni istamaydi. Asosiy aybdor – urush va uning salbiy asoratlaridir. Shu o'rinda fransuz mutafakkiri D.Didroning «xarakter tipik sharoit bilan belgilanadi»⁹ deya ta'kidlagan konseptual fikri haqqoniyliги oydinlashadi. Darvoqe, tipik manzara jamiyat ma'naviy mezonlariga zidlik kasb etsa ulkan fojialar keltirib chiqaradi. Shu tarzda ijodkorning urush va uning oqibatlariga ruhiy munosabati shakllanadi. Muallif asar to'qimalariga eyilib ketgan fojiaiy ruhni yuqori bosimda tutib turadi. Mazkur holat goh badiiy chizgilar, goh nutqiy ritorika vositasida umumlashtiradi. Hikoyada adibning qahramonlariga xayrixohligi har bir nuqtada sezilib turadi. Ayniqsa, ona qiyofasini shakllantirishda yozuvchi lirizm oqimini bir qadar kuchaytiradi. Muqaddimadanoq «ranggi uniqqan chit ko'ylak nimcha kiygan» Umri xolaning mahzun holati kitobxon tasavvurida tragik hissiyot uyg'otadi. Sentimental kayfiyat quyuqligi lirik ifodaning ustuvorligini bo'rttiradi.

“Urushning so'nggi qurboni» asarida xarakter mantig'ini psixologik jihatdan asoslashga moyillik seziladi. Qahhor uslubini eslatadigan aniqlik va dalillanganlik ba'zi o'rinlarda qavarib ko'rinadi. Jumladan, onaning «tars-tars yorilib ketgan barmoqlari» chizgisi g'oyaviy mundarijaning bir nechta nuqtalarini jipslashtiradi. Dehqonchilikdan xabardor kitobxon yaxshi biladi: qo'l bilan loy ishqalansagina barmoqlar tars yorilishi mumkin. Shu hayotiy kichkina unsurda ayolning ikkilanishlari, iztiroblari, vijdon azobi o'z ifodasini topgan.

Matnda lirik ifoda va epik maydon qorishib ketishi faqat tuyg'u va ong o'rin almashinuvlari bilan izohlanmaydi, balki badiiy asar substansiyasining ikkilamchi vazifadoshlikka o'tishi hamda undagi juzvlararo turfa aloqa-munosabat ta'minoti bilan real salmoq kasb etadi. Majmuaviy jarayonda ruhoniyyat va ijtimoiy materiya, sub'ekt talqin va ob'ektiv omillar o'zaro raqobatga kirishadi. Darhaqiqat, lirik ibtido va epik ko'lam o'rtasidagi uzviy aloqa sintetik xarakterga ega bo'lib,

⁹ Дидро Д. Избр. произв. -М.: -Л.: ГИХЛ, 1951. -С.206.

shartlilik hamda mantiqan asoslangan estetik markazda uyushadi. Mushohada silsilasi va tuyg'u ekspressiyasi voqelik shiddatini oshiradi, muayyanlashtiradi hamda tartibga solib turadi. SHu o'rinda ta'kidlash joizki, murakkab, qorishiq hissiyot ifodasi tahlildan (ta'kid bizniki Sh.M.) xoli bo'lishi lozim, negaki, tasvir ruhiyati ijodkor fitratida yangi ma'naviy mezonlarni kashf etadi. Psixologik jarayonning odatiy talqini badiiy mohiyatni ochib bera olmaydi. «Emotsional muqoyasa hayotiy material va hissiy idrok bosqichlaridan o'tgan ifodaning to'g'ridan-to'g'ri munosabati emas, balki qayta ishlangan hamda muqobillashgan shamoyili hisoblanadi»¹⁰ - deya e'tirof etadi rus adabiyotshunosi G.N.Pospelov. Unda ruhiy kechinma anglanganlik darajasi xoslangan ijtimoiy mohiyat shakllanishiga zamin hozirlaydi:

«Bu qo'llar uni yo'rgaklagan, unga ko'krak tutgan, shamollaganda badaniga qo'y yog'i surgan. Bu qo'llar sigir soqqan, tappi qilgan, kir yuvgan, ovqat pishirgan, non yopgan. Non! Onasining nazarida nondek tabarruk narsa yo'q edi». Parchada lirizm va epik mohiyat birlashib ketishi kuzatiladi. Yuzaga kelgan umumlashma hikoyachi obrazi mavhumligi, sirliligini ta'minlaydi. Mazkur holat esa, o'z navbatida, roviy va muallif shaxsiyati bir-biriga yaqinlashuvini tayin etadi. To'g'rirog'i, amaliy nutqda hodisot va kechinma yaxlit mohiyatga evriladi. Negaki, lug'aviy takror xarakter to'laqonliligini dalolatlash barobarida hissiy tafakkur kuchayishiga ham xizmat qiladi. Unda ijtimoiy mohiyat va ijodkor fitrati orasidagi aloqa uziladi. Lekin bu holatni uslubiy kamchilik sifatida qabul qilmaslik darkor. Negaki, tuyg'u va ong o'rtasidagi mantiqiy uzilish muvoziy taraqqiyotni belgilab beradi.

Lirik nasr musiqiyliги aynan ijtimoiy yo'naltirilganlikka zid qahramon nomoddiy mohiyati bilan izohlanadi, binobarin, ijodiy uyg'unlik adabiy materiya to'ldiruvchisi sifatida ko'ngil tajribasini mantiqan asoslaydi. Unda anglangan haqiqatdan anglanmagan mohiyat o'sib chiqadi. Ayon bo'ladiki, lirik ibtidoning epik kenglikka intilishi ichki hamda tashqi omillar mushtarakligiga borib taqaladi.

¹⁰ Пospelov Г.Н. Введения в литературоведения. –М.: Наука, 1986. –С. 143.

Unda ifoda mustaqilligi va tasvir qabariqligi, tahlil teranligi va talqin hayotiyliigi, tasavvur aniqligi va taassurot tiniqligi o'z aksini topadi:

«Mahallada qaysi kampirni uyidan topa olmasangiz to'ppa-to'g'ri Otinoyinikiga boravering! Otinoyining hovlisi pastko'chaning etagida. Uyi ham boshqalarnikidan ajralib turadi. Ikkita darvozali pastak uy. Boshqalarning derazasi oldida gilos bo'lsa, Otinoyinikida ikki tup tut bor. Boshqalarning tomi tunuka bo'lsa, Otinoyining tomi shifer. Hammaning tomida televizor antenasi bor, Otinoyinikida yo'q.»¹¹

O'.Hoshimovning «O'zbeklar» hikoyasi dasturiy xarakterga ega asar bo'lib, millat ma'naviy-axloqiy qiyofasini falsafiy umumlashtirgan sara badiiy durdonalardan biri. Unda o'zbek ayollariga xos bag'rikenglik, mehr-oqibat, diyonat va adolat tuyg'ulari yuksak lirik pardalarda kuylanadi. Hissiy tafakkur boshqaruvchilik vazifasi janr muvaffaqiyatini ta'min etgan. Unga bo'ysundirilgan epik mohiyat tabiati tuyg'ular realizmini kuchaytirishga yordam beradi. 1983-yilda yozilgan, dastlab «Mahallaning onasi», keyinchalik «O'zbeklar» sarlavhasi ostida nashr etilgan hikoyada ona siymosi badiiy tasviri oldingi asarlardagiga nisbatan quyuqlashadi. To'g'rirog'i, ayol timsoli markaziy qahramon darajasiga ko'tariladi. «O'zbeklar»da Otinoyi qiyofasining lirizm bilan yo'g'rilgan tasvir bayoniga urg'u beriladi. Muallif ayol xarakterini ochishga qaratilgan, onaxonning boshqalardan ajralib turuvchi jihatlarini quyidagi badiiy detallarga singdiradi:

«Mahallada qaysi kampirni uyidan topa olmasangiz to'ppa-to'g'ri Otinoyinikiga boravering! Otinoyining hovlisi pastko'chaning etagida. Uyi ham boshqalarnikidan ajralib turadi. Ikkita darvozali pastak uy. Boshqalarning derazasi oldida gilos bo'lsa, Otinoyinikida ikki tup tut bor. Boshqalarning tomi tunuka bo'lsa, Otinoyining tomi shifer. Hammaning tomida televizor antenasi bor, Otinoyinikida yo'q»¹².

Yozuvchi qiyosiy-analogik tahlil vositasida milliy irodasi va e'tiqodi talqinini asosiy planga chiqaradi. Qahramon ichki kolliziyasidagi evrilishlar milliy

¹¹ Хошимов Ў. Ҳадикли тушлар. –Т.: Адабиёт ва санъат. 2002. –Б.145

¹² Хошимов Ў. Ҳадикли тушлар.-Т.: Адабиёт ва санъат,2002.-Б.246.

koloritni yorqin ifodalaydi. Shu boisdan ham asar sarlavhasining «O‘zbeklar» deb nomlanishi maqsadga muvofiqdir.

Rus olimi F.M.Golovenchenko «hikoyada xarakter taraqqiyotda berilmaydi, har bir shaxs tayyor holda namoyon bo‘lib, uning biror xususiyati ochib beriladi»¹³, - deya e‘tirof etadi. V.I.Timofeevning nazariy qarashlari ham shunga yaqinroq. «Xarakter shakllangan tayyor holda ko‘rsatiladi. Aks ettirilayotgan voqeagacha xarakterning qanday bo‘lganligi, u tugagandan so‘ng qanday bo‘lishligi tasvirlanmaydi yoki yo‘l-yo‘lakay aytib o‘tilishini»¹⁴ ta’kidlaydi.

O‘z-o‘zidan ayon bo‘ladiki, xarakter, birinchidan, ijodkor tafakkurida qayta ishlangan, estetik qiymatga ega bo‘lgan manzara qiyofani tavsiflaydi. Ikkinchidan, mazkur tushunchada tipik manzara va mantiqiy dalillanganlik munosabati kuzatiladi. Uchinchidan, xarakter tabiati badiiy niyat hosilasi sifatida jamiyat estetik idealini ifodalaydi.

Hikoyada Otinoyi va uning o‘g‘li munosabati sujet chizig‘i asosini tashkil etadi. Asar to‘g‘ridan to‘g‘ri fojiaiy nuqtadan boshlanadi. Ona vafotining Iskandar dunyoqarashida keskin o‘zgarishga sabab bo‘lganligi mantiqiy izchillik kasb etadi.

Yozuvchi falsafiy mushohodani berishda Otinoyining adabiyotshunoslar qayd qilganidek, «tayyor holdagi» xususiyatlaridan foydalanadi. Farzand xarakteridagi parokandalik Otinoyi qiyofasining mukammalroq tasvirlanishiga turtki beradi. Hikoyada xotiralar yordamida shakllanadigan lirik hissiyot hayotiy tafsilotlar bilan to‘yintirilib, epik ko‘lamdorlik kasb etadi: «Bu qo‘llar uni yo‘rgaklagan, unga ko‘krak tutgan, shamollaganda badaniga qo‘y yog‘i surgan. Bu qo‘llar sigir soqqan, tappi qilgan, kir yuvgan, ovqat pishirgan, non yopgan.

Non! Onasining nazarida nondek tabarruk narsa yo‘q edi.»¹⁵

Ma’lumki, hikoyada qahramonning ruhiy dunyosidagi o‘zgarishlar tipik vaziyat bilan bog‘liq holda yoritiladi. O‘tkir Hoshimov tiriklik paytida onasining qadriga yetmagan farzand ichki dunyosining dialektik ziddiyatlarini shtrixlar orqali

¹³ Головенченко Ф.М. Введение в литературоведение.-М.: Просвещение,1964.-С.402.

¹⁴ Тимофеев В.И. Основы теории литературы. - М.:Узпедгиз,1963.-С.331-332.

¹⁵ Ҳошимов Ў. Кўрсатилган асар.-Б.251.

tasvirlaydi. Psixologizm zalvori yozuvchining inson ruhiyatini kengroq va chuqurroq ifodalashiga xizmat qilib, ijodkorga lirik ehtiros hamda epik tasvir kengligini sintetik tarzda gavdalantirishga ko‘mak beradi.

Shuni ham ta’kidlash lozimki, psixologizm tushunchasi qahramon shaxsiy dunyosining ochib berilishi bilan cheklanmaydi, balki xarakter tasvirida ijtimoiylik belgilari to‘laroq namoyon bo‘lishi shartligini mezon darajasiga ko‘taradi.

Hikoyada Otinoyining o‘limi jamiyatdagi parodoksal holatlarni yuzaga chiqaradi. Adib xarakter shakllanishini turli xil tarzda talqin qiladi. Inson irodasining o‘zgarmas tabiati (Otinoyi) va hayot pillapoyalarida o‘zgargan qiyofa (Iskandar) tuyg‘ular realizmini jonlantiradi.

Hikoya janrining ijodiy imkoniyatlari cheklanganligi muallifning xotiralarga murojaat qilishiga olib keladi. Shuningdek, hayotiy tafsilotlar badiiy qimmatini oshiradigan ichki va tashqi omillar mushtarakligi, milliy ma’naviyat hamda sog‘lom e’tiqod asar badiiy pafosining oshishiga xizmat qiladi.

Jahon hikoyachiligida xarakter yaratish tajribasining ikki usuli mavjud. Ba’zi hikoyalarda insonni tasvirlash psixologik izchillik asosida amalga oshirilsa, ayrim asarlarda badiiy tafsilot, poetik shtrix, ruhiy holat, tavsifiy munosabatlarni aks ettiradi. Agar dastlabki qatlamda inson mohiyati aniqlik va batafsil ifodaga bo‘ysundirilsa, keyingi usulda falsafiy umumlashma yetakchi badiiy atributga aylanadi.

Bir qarashda Iskandar Vahobovich «xotiralari» uzuq-yuluq jumllardek taassurot uyg‘otadi. Biroq undagi estetik bosim hikoyani yuzaki patetika, ortiqcha bayonchilikdan saqlaydi. Tabiiyki, kichik-kichik detallarning o‘zaro aloqadorligini ona siymosi birlashtirib turadi. Ayni paytda lirik kechinmalar shiddati mohiyatni aniqlashtirish, jamlash va muayyan maqsadga yo‘naltirish uchun imkon yaratadi.

Umuman, hikoyada imon, e’tiqod, diyonat singari tushunchalar millat sajiyasining umumiy belgilarini ifodalaydi. Muallif o‘zbek ayoli qiyofasini chizar ekan, ona siymosining ulug‘vorligini hayotiy ziddiyatlar uyg‘unligida talqin etadi. Bu ulug‘vorlik salbiy xatti-harakatlar ruhiy bosimida ham o‘z mohiyatidan

uzoqlashmaydi. Shu tariqa yozuvchi millatga xos bag'rikenglik, yuksak gumanizm haqidagi qarashlarini ilgari suradi.

Otinoyi garchi ijtimoiy hayotda yetakchi mavqega ega bo'lmasa ham xalq jipsligi, orzu-istaklarini o'zida mujassamlashtirgani bilan kitobxon e'tiborini tortadi. Ijodkor Otinoyining hovlisini quyidagicha tasvirlaydi: «mashina sig'maydigan (unga mashinaning nimayam keragi bor) tor yo'lakdan o'tib, qutidekkina shinam hovliga kirasiz. Ariq tortib ekilgan rayhonlar belga uradi. Osh rayhon, sada rayhon, oq rayhon, qora rayhon. Hovli etagida, eski bostirma oldida bir tup o'rik bor. Dovuchcha tukkandan boshlab turshak bo'lguncha mahallaning qora-qura bolalari shoxdan shoxga tarmashadi. Otinoyi o'rikni qizg'anganidan emas, bolalarga achinganidan chirqillaydi: «hoy, uyingga bug'doy to'lgur takalar, tush, yiqilib ketasan!» «Takalar» parvo qilmaydi. Biladiki, Otinoyining tuti ham, o'rigi ham ularniki! Umuman, bu hovli hammaniki.»¹⁶

Parchada bir necha jihatlar e'tiborni tortadi. Birinchidan, tasvirda xususiylikdan umumlasmaga o'tish holati ko'zga tashlanadi. Aniqroq aytganda, ayol obrazi millat ramzi qirralarini o'ziga singdirgan. Ikkinchidan, lirik ta'kid xalq turmush tarzini tabiiy holda ifodalash vazifasini bajaradi. Uchinchidan, badiiy tafsilotlar aniqligi ruhiy hissiyotning yuqori pardalarda namoyon bo'lishini ta'minlaydi.

Yozuvchi o'zbek millatiga xos kayvoni timsolini yaratar ekan, uning har qanday manfaat va g'arazlardan yuqori turishini, el-yurt quvonchu tashvishlari uchun doimo kamarbastaligini xolis tasvirlashga urinsa-da, ob'ektga bo'lgan lirik emotsiyalarini yashira olmaydi. Bu xususiyat san'atkorning ijodiy tamoyillariga hamohangligini e'tiborga olsak, yaxlit konseptual xarakter kasb etadi.

Ayniqsa, muallifning xolislik mavqei aksariyat hollarda me'yordan chekinishi, tabiiylik va samimiyat epizodlarda o'z o'rnini ijodiy simpatiyaga berishi lirik taassurotlar ustuvorligini birlamchi planga olib chiqadi.

O'tkir Hoshimov asarlarida tuyg'ular silsilasi va epik ko'lam munosabati xalq dahosi, milliy mentalitet, estetik qadriyatlar mezoni bilan o'lchanadi.

¹⁶ Юқоридаги асар.-Б.246.

Ayonki, go‘zallikni anglash va idrok etish ijtimoiy talablar vositasida real mohiyatga ega bo‘ladi. Jamiyat mafaat va qiziqishlari maqsad va intilishlari hissiy tafakkur darajasini belgilaydi.

Rus adabiyotshunos olimi A.Dryomov «Xudojestvenny obraz» deb nomlangan kitobida go‘zallikning namoyon bo‘lish darajasini uch qismga ajratadi: birinchisi, mohiyatning asosi, voqelikning ob‘ektiv–nafis shamoyili; ikkinchisi, nafosatning onga munosabati (tasavvur, tushuncha, taassurot, ko‘lam); uchinchisi, san’atdagi estetika (faqat qabul qilingan emas, ongli shuuriy tarzda qayta ishlangan kechinma).¹⁷

Ko‘rinadiki, tasavvur yoki tushuncha badiiy yangilanish hosilasi sifatida umumiy qonuniyatlarning alohida mohiyatini ifodalaydi. Mazkur jarayonda shakliy mundarija intizomi, ma’no takomili izchilligini ta’minlaydi. To‘g‘rirog‘i, tafakkur madaniyatida ko‘zga tashlanadigan umumiy belgilar ongdagi alohidalik xususiyatlarining sub‘ektiv xarakteri bilan ziddiyatga kirishadi.

Nazariy mulohozalarga hamohanglik O‘.Hoshimovning «Ikki eshik orasi» romani «To‘y» qismida tasvirlangan epizodning psixologik takomilida yorqinroq aks etgan: «Kelinlar to‘dasi yor-yor aytgancha eshikka yaqinlashdi. Hovlidagi fonuslarning nuri g‘ira-shira yoritib turgan eshik oldida «qora ammam»ni ko‘rib qoldim. Qo‘lida bog‘ichi echilgan qiyiqcha. Negadir titraydi. Oppoq sochlari uchidagi so‘kavoy cho‘lpilarining jiringlashi childirma shovqini, surnay ovozida eshitilmasa ham bir-biriga urinib ketayotganini sezdim».¹⁸

Odatda badiiy tafsilot asar tuzilmasida turfa xil vazifalarni bajarishi mumkin. Ba‘zan poetik detal mustaqil ifoda shakli sifatida voqealar tizmasini harakatga keltirishi, sekinlashtirishi yoki tezlashtirishi mumkin. Bu holatda tafsilot yozuvchi g‘oyaviy-badiiy mavqeini belgilovchi xususiyatni ifodalaydi. Jumladan, parchadagi marosim talqini adib dunyoqarashining milliy e’tiqod bilan bog‘liqligini mantiqan dalillaydi. Ayrim o‘rinlarda badiiy detal mohiyati o‘z mustaqilligini yo‘qotib poetik shtrixlarnigina gavdalantirishi mumkin. Shu tariqa

¹⁷ Дрёмов А. Художественный образ. -М.: Госполитиздат, 1961. -С.46.

¹⁸ Хошимов Ў. Икки эшик ораси. –Т.: Шарк, 2000. –Б.112.

turkum detallar obraz tabiatini to'ldiradigan, aniqlashtiradigan va tartibga soladigan unsurlarga aylanadi. Xususan, «fonuslarning nuri», «bog'ichi echilgan qiyiqcha», «so'kavoy cho'lpilarning jiringi», «childirma shovqini», «surnay ovozi» kabi chizgilar ham o'zbekona to'y manzarasini, ham millat turmush-tarzini tavsiflaydigan vositalarni sintezlashtiradi.

A.Dryomov tezisiga ko'ra, birinchidan, to'y manzarasi o'zining tabiiy nafosati, shakllangan e'tiqod tarzi bilan e'tiborni tortadi; ikkinchidan, marosimning xalq ma'naviyatini uyg'unlashtiradigan, maqsad-intilishlarini birlashtiradigan xarakteri umuminsoniylik kasb etadi; uchinchidan, tasvirdagi lirizm va rivoya o'rin almashuvlari badiiylilik darajasini shakllantiradi.

O'.Hoshimov asarlarini yuzaki patetika, da'vatkorlikdan saqlab turadigan muhim xususiyatlardan biri voqelikni nozik estetik idrok etish bilan bog'liq. Ushbu jihat asar tabiati va sajiyasiga mos xarakterli tafsilotlarni tanlay olish, umumlashtirish va estetik baholash birligidan oziqlanadi. Muallif badiiyatida go'zallik ob'ekti quyidagi tushunchalarni o'zida mujassamlashtiradi: 1) milliy ma'naviyat; 2) estetik ideal; 3) ijtimoiy mohiyat.

Ijodkor izlanishlarida milliy ma'naviyat ifodasi markaziy planga chiqadi. Tushunchaning keng mazmuni asarlarda turli xil tarzda namoyon bo'ladi. Jumladan, «Urushning so'nggi qurboni», «O'zbeklar», «Ikki eshik orasi», «Nur borki, soya bor» kabi badiiy namunalarida ruhiy munosabatlar ijtimoiy hayot hamda davr tabiati vositasida oydinlashsa, «Tushda kechgan umrlar», «Bahor qaytmaydi», «Odamlar nima derkin» kabi poetik polotnolarda inson ichki dunyosi kolliziyasi chuqur ishlanganligining guvohi bo'lamiz.

San'atkor asarlarida tarixiy kolorit ijodiy koordinatalarni belgilaydi. Biroq voqealar rivojiga xronologik aniqlik talabini qo'yish mumkin emas. Negaki, ijodkor hayotiy aqidani qayta ishlaydi, unga sayqal beradi va yuqori dinamik mohiyat shakllantiradi.

II BOB. MILLIY AN'ANALAR TASVIRI VA UNING OBRAZ XARAKTERI TAKOMILIDAGI BADIY FUNKSIYASI

Har bir davr milliy adabiyotining yetakchi xususiyatlaridan biri falsafiy-estetik qarashlarning xalq hayoti, an'analari bilan bog'liqligida namoyon bo'ladi. Chunki badiiy asar millat sajiyasining ikkilamchi ko'rinishi bo'lib xarakter to'laqonligini belgilaydigan hamda estetik mohiyatini yuzaga chiqaradigan tayanch nuqta hisoblanadi. Zero, muallif ijodiy niyatiga bo'ysundirilgan qadriyatlarning ijtimoiy-falsafiy va madaniy-ma'rifiy sajiyasi hayotni poetik tadqiq etish ijodiy taomillarini belgilaydi. Ayni paytda milliy qadriyatlar barqarorligi hamda unga munosabat ijtimoiy tafakkur takomiliga ta'sir o'tkazadi. Adib ijodida aks etgan milliy ma'naviyat ifodasi belgilari, bir tomondan ifoda shaklining hayotiylikini ta'minlasa, ikkinchi tomondan, ijodkor uslubi va estetik ideal munosabatini sintezlashtiradi. Aynan ilg'or milliy dastur va an'analar xalq ruhiy hayotining parallel chiziqlari ekanligini hisobga olsak, adabiyotning gumanistik mohiyati yanada to'laroq in'ikos etadi. Shuningdek, obrazli ifodadagi diffuziya reallikni anglash hamda anglatish miqyoslarini sharhlaydi. Faktografik belgilar davomli izlanishlar natijasi o'laroq mutaql ma'no taraqqiyotidan uzilib ijodiy munosabat yaxlitligi hamda o'ziga xosligini ta'minlashga yordam beradi. Xususan, O'.Hoshimov asarlarida o'zlikni anglash, milliy mushohada tarzini suvratlash, unga g'oyaviy-badiiy niyatni singdirish tonal ifodani shakllantiradi:

«Arava ichiga qalin qilib to'shalgan ko'rpachada paranji yopinib o'tiribman.
Bir tomonda oyim, bir tomonimda Fotima kelin. Xotinlar to'xtovsiz yor-yor aytadi:
Tog'da toychoq kishnaydi, ot bo'ldim, deb yor-yor,
Uyda kelin yig'laydi, yot bo'ldim, deb yor-yor..»

Asarda to'y marosimi bilan bog'liq tafsilotlarga keng o'rin ajratilgan. Asrlar davomida shakllangan milliy an'ana uch qahramon tomonidan izohlanadi. Bolakayning sodda, jozibali talqini, Robiyaning ruhiy tahlil teranligi saqlangan bayoni va Qora ammaning to'y tashvishlariga yo'naltirilgan kechinmalari marosimni turfa nuqtalardan yoritish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida xarakter qirralarini oydinlashtirish, milliy urf-odatlarining xalq hayotidagi

salmog'ini kuzatishga yordam beradi. Nutqiy faoliyat vositasida kitobxon Muzaffarning bolalarcha soddaligi va tiniq samimiyati, Robiyaning ruhiy barkamolligi, Qora ammaga xos mehr-oqibat rishtalari bilan tanishadi. Bir tafsilotning uch talqini asar syujetini bog'lab turuvchi chiziq tarzida aniq tasavvurlar uyg'otadi. Bu tasavvur xalq hayotining umumiy qonuniyatlarini ifodalab, insonlararo tipik manzaralar xarakter takomilidagi o'sish-o'zgarishlar hajmini uyg'unlashtiradi. Bu mushtaraklik o'z navbatida ham ijodkorning ijodiy tamoyillarini, ham ijtimoiylik belgilarini mujassam etgan. O'z-o'zidan ayonki, adib asarlarida milliy qadriyatlar va xalq ruhiyati xarakter tabiatini belgilaydi. Aynan qahramonlar tafakkuri va faoliyatida ma'naviyat hamda e'tiqod ta'siri goh epik unsurlar, goh lirizm zalvori vositasida oydinlashadi. Kichkinagina to'y detali bir necha obrazlar hayotini o'zgartirib yuboradi. Binobarin, marosim Robiyaning orzu-istaklari, samimiy muhabbatini chegaralaydi. To'g'rirog'i, hayotiy zaruriyat uni o'z izmiga bo'ysundiradi. Tabiiy ehtiyoj (Muzaffar qismati) Qora ammaga ham kuchli ruhiy zarba beradi. Negaki, Robiyaning Shomurodga uzatilishi Kimsan uchun ochilgan aza bilan borabar edi. Zahmatkash ona qalbida doimiy va davomiy ravishda umid, ilinj hamda ishonch tuyg'usi yashashini e'tiborga olsak, psixologik kolliziyalarning tasvir markaziga ko'tarilgani ayonlashadi.

Ma'lumki, milliy urf-odatlar va an'analar xalq tiynati kabi soddaligi, qabariqligi, yorqinligi va ustuvorligi bilan ajralib turadi. Shu boisdan ham mentalitetga xos atributlar tinglovchi ongiga tez etib boradi. Bu xususiyat, bir tomondan, tushuncha, tasavvur hamda tafsilotlarning qayta-qayta ishlanganligi – sayqal topganligi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan motivizatsiya zahirida qayta hayotiy tajribalar, falsafiy umumlashmalar vositasida izohlanadi. Demak, O'.Hoshimov o'z ijodida sharqona mifo-poetik qarashlardan foydalanar ekan, birinchi navbatda, aqidaning umuminsoniy mohiyatiga e'tiborni qaratadi. Muallif tomonidan tanlangan epizodik lavhalar, rivoyat va afsonalarda mazmun ijodkor fitratida qayta baholanadi, estetik qiymat kasb etadi. Aynan adib roman va qissalarida lirik-falsafiy tahlilning ustuvorligi ishlanganlik darajasi bilan o'lchanadi. Fikriy ifodaga moyillikda Chingiz Aytmatov, Odil YOqubov, Asqad

Muxtor an'analari ta'siri seziladi. Adibning xalq og'zaki ijodi manbalaridan foydalanish darajasi o'ziga xosligini lirik jo'shqinlik va mushohadakorlik omuxtaligida ko'rish mumkin. Agar qirg'iz yozuvchisida epik kenglik intellektual-ma'rifiy sarhadlardan oziqlansa, lirik bosim O'.Hoshimov ijodini quvvatlantiradi. Ijodkor xalq fitrati va e'tiqodiga alohida mehr bilan yondashadi. Mana shu jihat uni millatparvar adib deb atash imkonini beradi. Garchand afsona, rivoyat, milliy urf-odatlar o'rin almashinuvi san'atkor izlanishlarida bo'rtib ko'rinso-da, shakliyl mundarija o'ziga xosligi, kompozitsion yaxlitlikka putur etkazmaydi. Zotan, yozuvchi badiiy niyati va unga bo'ysundirilgan tafsilot hajmi uslubiy maneraning poetik o'zgachaligini belgilab beradi. Jumladan, qahramon nutqida poetizmlar, mifologizmlar ifodasi muallif nazariy-estetik qarashlarining muvoziy belgilari hisoblanadi.

O'tkir Hoshimov asarlarining g'oyaviy bazasini insonning ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy mohiyati tashkil etadi. Bu uchlik estetik nuqtai nazarning milliy an'analarga munosabat yordamida ijodiy yaxlitlik kasb etadi. Adibning xarakter yaratish mahorati va ularning ruhiy dunyosini kashf etish darajasi an'analarning uzviy aloqadorligi mahsulidir.

Ma'lumki, madaniyat tushunchasi har bir xalqning turmush-tarzi, yashash shart-sharoitlari, ijtimoiy-estetik tafakkuri singari kategoriyalarni qamrab oladi. To'g'rirog'i, madaniyat bu hayot tezisiga suyangan holda, aytish mumkinki, har bir millatning o'ziga xos tabiati, asrlar davomida shakllangan urf-odatlar o'zgachaligi, an'analar barqarorligi demakdir.

Mentalitetga xos xususiyatlar milliy qadriyatlar timsolida hayot o'sish-o'zgarishlarining ulkan ma'naviy patensialini jamlaydi. Aniqrog'i, psixologik kechinmalar va boy tajribalarning sintezi tarzida paydo bo'ladigan hamda rivojlanadigan an'ana xalqning betakror ruhiy olami butunligini ta'minlaydi. Bu betakror ruhiy olam ijodkor botinida ham aks sado beradi. Shu ma'noda har bir adib izlanishlarida milliy motivlar va ulardan foydalanish darajasi chuqur nazariy bilim hamda adabiy mahorat mushtarakligiga borib taqaladi. Negaki, muayyan aqidaning asarda qo'llanishi mazmunning salmoqdorligi va realligini belgilaydi.

San' atkor badiiyatida milliy an'analar quyidagi uslubiy vazafalarni bajaradi:

Xarakterning to'laqlonligi va mukammalligini tavsiflaydi. Xususan, «O'zbeklar» hikoyasida o'lim va uning badiiy talqini uch obraz mohiyatini ochib beradi. Binobarin, milliy odat – Iskandar Vahobovichning Otinoyini so'nggi manzilga kuzatish jarayonida ona-farzand-kelin munosabatlarining ma'naviy tahlili tadqiq markaziga ko'tariladi. Marosim davomida Otinoyining naqadar bag'rikeng inson bo'lganligi, ma'naviy barkamolligi ayonlashadi. Aynan qahramonning mahalla dasturxonchisi bo'lganligi, irim-sirim, udumlarni yaxshi bilganligi undagi xarakter qirralarini mantiqan dalillaydi. Asarda epizodik holatlar ona qiyofasini muayyan darajada tavsiflaydi. Biroq, yo'l-yo'lakay berilgan shtrixlar obraz mohiyatini ochib berish uchun etarli emas. Muallif qahramon vafoti bilan bog'liq hayotiy an'anaga bir necha funksiyani yuklaydi. Binobarin, mahalla ahlining marhumga munosabati o'zbek ayoli timsolining umumlashmasini ifodalaydi:

«Bekatga chiqishganda trolleybus kelib qoldi. To'xtashi bilan duv etib o'ttiztacha erkak tushdi-yu tobutga yopishdi.

-Kim?-deb so'radi ziyolinamo ko'zoynakli yigit Iskanlarning yonida ko'z yoshini to'nining yengiga artib ketayotgan Xolmat akadan.

-Otinoyim!

-Ie!-ko'zoynakli yigit rangi o'chgancha tobutga qaytadan tirmashadi.»¹⁹

Mazkur tasvir shakli onaning mahallada tutgan mavqei yuksakligidan dalolat beradi. To'g'ri, milliy an'analarimizga ko'ra qazo qilgan insonni hurmatlash, u haqda yomon gaplardan tiyinish odat tusiga kirgan. Biroq bu o'rinda muallif Otinoyi timsolini xarakterli tafsillar bilan ta'riflab boradi, kitobxonni ruhiy holatga tayyorlaydi. Hikoyadagi ikkinchi syujet chizig'i Iskandar obrazi ziddiyatlarini aks ettiradi. Bu xarakter tabiatidagi murakkablik farzandning onaga munosabati orqali aniqlikka erishadi. Asarda o'rni-o'rni bilan qo'llangan jo'shqin lirizm ifoda tiniqligi hamda xarakterlararo uyg'unlikni yuzaga chiqaradi.

¹⁹ Xo'shimov Ў. Хадикли тушлар. Сайланма. Икки жилдлик. Иккинчи жилд.-Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002.-Б.261.

Marosim mobaynida Iskandar xotiralarida jonlantiriladigan voqealar silsilasi ona obrazini izchil suratda yangi-yangi qirralar bilan boyitib boradi hamda hikoya adog'ida qahramon tiynati o'zbekona milliy mohiyatga aylanadi.

«O'zbeklar» kulminatsiyasida uch qahramonning o'zaro munosabati tursada, muallif asosiy e'tiborni ona siymosi umumlashmasini tadqiq etishga yo'naltiradi. Voqealar bayonida adib har bir surat, manzara, holatning tabiiy chiqishiga urg'u beradi. Mahalla-ko'yning faryod chekishi, bolalarning to'n kiyib, tobut oldida «buvijonim» deb yig'lashi, Xolmat akaning tushkun kayfiyati Otinoyi qiyofasida yashirin ulkan mehr-oqibatning samarasidir. Farzandning karaxt ahvolga tushib qolishi ham tabiiy asosga ega. Qolaversa, Iskandar Vahobovich ilk bor xalq taomillarning ulug'vorligini, Otinoyining el-yurt orasida tutgan mavqeini his qiladi:

«Iskandar yuk mashinasi faqat stol-stulni olib kelishga mo'ljallanmaganligini tushundi. Laylaktepa olis, to'rt chaqirim keladi. Oyog'i ostida o'ralashayotgan o'n-o'n ikki yashar bolakaylar ham to'n kiyib, belini bog'lab olganiga avval hayron qoldi-yu, keyin tushunganday bo'ldi. Ehtimol, Xolmat akaning bolalaridir, ehtimol qo'shni bolalardir...

...old tomoniga paranji, orqasiga mursak yopilgan tobutni olib chiqishganida hammayoq dilni o'rtovchi faryodga to'lib ketdi. Kelinoyi, Bahri xola, Muattar xola, allaqanday qizlar, kelinlar chuvvos solib tobut ketidan yugirishdi.

-Voy onam!

-Ro'shnolik ko'rmagan onam!

To'n kiyib, belbog' bog'lagan bolakaylar ko'zidan duv-duv yosh oqib: «Buvijonim, buvijonim!» deb chirillashar edi. Xolmat akaning mo'ylovi ho'l bo'lib ketgan, nuqul titraydi:

-Hammamizning onamiz edingiz-a!»²⁰

Yozuvchi Iskandar tabiatiga bo'yoqdor chizgilar berar ekan bir haqiqatni kashf etadi: milliy an'analar, urf-odatlarga sodiqlik va e'tiqod mustahkamligi mahalladan boshlanadi. Ayniqsa, mentalitetga xos ezgu udumlar shu yerda

²⁰ Юқоридаги асар.-Б.260.

barqaror ko‘rinishga ega. Aynan noqobil farzandning fojiasi ham el-yurtdan uzoqlashganligi, aniqrog‘i milliy qadriyatlarni unutayozganligi bilan bog‘liq. Shunga qaramay Iskandar Vahobovichning ko‘zi ochiladi. Voqealar silsilasida u o‘zligiga nazar tashlaydi. Biroq, endi juda kech, g‘isht qolipdan ko‘chgandi!

Hikoyada e‘tiborni tortadigan epizodik obraz – qo‘shni Xolmat aka timsoli ham muayyan maqsadga bo‘ysundirilgan. Adib undagi mehr-oqibatni Iskandar qiyofasidagi ziddiyatlarga qarshi qo‘yadi. Tipologik va analogik tahlil ham farzand, ham ona xarakterini yorqin ifodalashga yordam beradi.

Provodnik Xolmat aka asarning ikki-uch lavhasida ishtirok etsa-da, oddiy xalqning tipik vakili darajasiga ko‘tariladi. Dastavval kitobxon uni sodda, to‘pori ko‘rinishda tasavvur qiladi. Voqealar oqimida Xolmat akaning yangi sifatlari namoyon bo‘la boradi. Aynan Otinoyining vasiyatidan xabardorligi (nega farzand emas!) qo‘shnisi bilan munosabatlari teranligini milliy, umuminsoniy mohiyatga yo‘naltirilganini ko‘rsatadi. Tasvir drammatizmi hikoya adog‘ida eng yuqori nuqtaga ko‘tariladi:

«...Iskandar o‘ylagandek tobutni mashinaga ortishmadi. Yelkada ko‘targancha yo‘lga tushishdi. Iskandar tobut bandidan ushlab olti-yetti qadam yurgan edi, uni siqib chiqarishdi. U tobut bandiga hadeb qo‘l cho‘zar, ammo navbat tegmas edi. Tanish-notanish odamlar goh oldinga, goh orqaga o‘tib talashib-tortishib tobutga yopishar, har kim iloji boricha ko‘proq ko‘tarishga, yelkasini uzoqroq tutib berishga harakat qilar edi.

...Ko‘chada harakat butunlay to‘xtab qoldi. Burilishga yetganlarida Iskandar beixtiyor orqasiga qaradi. Odamlar oqimi ikki bekat orasiga cho‘zilib, butun ko‘chani to‘ldirib kelar, tobut ularning elkasida osoyishta tebralib borar, oqimga yangidan-yangi odamlar kelib qo‘shilar, qo‘shilar, qo‘shilar edi...»²¹

Epik bayon ona qiyofasining ulug‘vorligi, millat sajiyasini o‘ziga singdirganligi, umuminsoniy masalalarni uyushtirib turganligi bilan diqqatga sazovordir. Zero, yozuvchi niyatidan qahramon tabiatidan falsafiy umumlashmaga

²¹ Ўша асар.-Б.261.

qadar masofa ijodiy koordinatalarni belgilaydi. Bu ijodiy koordinatalarda shaxs omili va jamiyat a'moli mushtarak hodisaga aylanadi.

Ikkinchidan, insonlararo, xarakterlararo va millatlararo mushtaraklik voqealar tizimining umumiy sajiyasini aks ettiradi. Shu tariqa sub'ektiv obrazning ob'ektiv qirralari davr va psixologik qonuniyatlarning dramatik va hissiy bosimini shakllantiradi. Muallif aksar talqinlarda milliy an'analarning hamohanglikni uyushtirish, o'zaro hamjihatlikni bo'rttirish vositasida o'ziga xos ma'naviy konsepsiya yaratadi. Bu ma'naviy konsepsiyaning bir o'q ildizi ma'rifiy tarbiya asoslariga yo'naltirilsa, ikkinchi o'q ildizi ruhiyat va umuminsoniy qadriyatlar orasidagi muvozanatni tiklashga borib taqaladi. To'g'rirog'i, adib ijodining mag'zini e'tiqod butunligi, qadriyaviy estetik baholash me'zoni, inson omilining axloqiy sifatlari tashkil etadi. Darvoqe, ma'naviyat va ma'rifat qanchalik keng tushuncha bo'lsa, ijodkor ishlanishlari qamrovi ham shunchalik teranlashadi.

O'.Hoshimov ma'naviyat va ma'rifat, tarbiya va ta'sir o'zagini milliy e'tiqod darajasi belgilaydi. «Dunyoning ishlari» qissasida Klava xola operatsiya qildirish uchun shifokorga pora berishga majbur bo'ladi. Bu kichkina holat millatning naqadar o'zlikdan uzoqlashayotgani, asrlar osha birovning haqi harom deb o'rgatgan o'zbeklar orasida tuban urf-odatlar, rusumlar paydo bo'layotganini ko'rsatadi. Bu detal e'tiqod hamda an'ana uyg'unligi asosiga qurilgan milliy tarbiyaning susayganligidan dalolat beradi. Zero, har bir xalqning ruhiy potensialini ma'naviy qadriyatlarga munosabat, milliy aqidalarning ijtimoiy ongdagi barqarorligi tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan san'atkor poetikasi ham adabiy-estetik tomondan, ham ma'rifiy tomondan ta'sir o'tkazuvchi omilga aylanadi:

«Dushman! Hammasi dushman! Ilonning bolasi – ilon, chayonning bolasi – chayon!...» - Soat da'fatan xayoliga kelgan gapdan ko'nglida alam va ayni paytda allanechuk yengillik tuydi... Bir mahal qarasa, ko'ylagi osig'liq o'rik shoxida sapsariq mevalar yaltirab turibdi. Pastda emas, qiri uchida. Xayoliga g'alati o'y keldi.

-Husanxo'ja! Husanxo'ja!

-Nima?-degan ingichka ovoz keldi.

-O'rik olib tush. Huv, yuqori shoxdan. Tez bo'l!

-Yiqilib tushaman-da.

-Yiqilmaysan.

Husanxo'ja uzun ishtonini shaloplatib yaqin keldi.

-Kesak otaqolay?

-Mayli, -dedi Soat loqaydlik bilan.

...mang, Soat aka!

-Yuvmaysanmi, ahmoq!- Soat ko'zini ola-kula qildi. –Tuproqqa qo'shib yemayman-ku!

Husanxo'ja anhor sohiliga qorni bilan yotib, o'rikni chayib keldi.

-Mang, aka!

-Yorilibdi-ku, eshshak! Menga butuni kerak!- Soat o'riklarni anhorga uloqtirdi. – Chiq shoxga!-dedi o'dag'aylab. – Butunidan uzib tush!

Husanxo'ja birpas angrayib turdi-da, alam bilan chiyilladi: - Ey, bor! Men sening malayingmanmi?

-Nima?- Soat sapchib o'rnidan turdi. – Nima deding?- tarsakilab yuborgan edi, Husanxo'ja ag'darilib tushdi.

Shunda...kutilmagan hodisa ro'y berdi. Ovozi do'rillab qolgan tengdoshlari quyundek yopirilib keldi. To'rttasi baravar yopishdi. Biri qo'ltig'idan oldi, biri oyog'idan... Suvga uloqtirib yuborishdi.»²²

Tasvir jarayonida voqealar tizimi bir-biriga zid bo'lgan g'oyaviy chiziq – yangicha dunyoqarash hamda milliy e'tiqod konfliktdan oziqlanadi. Fikriy to'qnashuv hatto bolalar ruhiyatiga ham ta'sir o'tkazgan. Shunday ekan Soatning o'z tengdoshlaridan begonalashuvi tabiiy hol, albatta. Kichik badiiy lavhada katta ma'naviy yuk yashirin: yangicha dunyoqarashga xos norozilik, alamzadalik bo'lg'usi Komissar kayfiyatida zohir. Milliy an'analar asosida voyaga etgan Husanxo'ja timsolida esa sharqona bag'rikenglik, milliy tarbiya nishonalari seziladi. Undagi kattaga hurmat hissini Soatdagi inijliklar ham o'ldira olmaydi.

²² Ҳошимов Ў. Сайланма. Икки жилдлик. 2-жилд. Ҳадикли тушлар.-Т.: Ф.Ғулом номидаги Адабиётга санъат нашриёти, 2002.- Б.34.

Eshonzoda «seni tosh bilan urganni, osh bilan siyla» aqidasiga amal qilgan holda, garchand tarsaki egan bo'lsa ham Soatni qutqarib qolish fikri undan chiqadi. Allaqachon ongi sho'ro mafkurasi bilan zaharlanib ulgurgan boladagi g'urur, to'g'rirog'i, alamzadalik hissi o'jarlik bilan qorishib, yordamni rad etadi. SHu nuqtada yangilik va an'anaviylik ziddiyati, ulardagi mazmun-mohiyat bir qadar oydinlashadi. Ayni paytda muallifning g'oyaviy-badiiy niyati ktiobxonni keskin falsafiy hukm sari etaklaydi. Unga ko'ra, kommunistik maslak o'zbekona turmush tarzini izdan chiqardi. Jamiyat ma'naviy tanazzulini boshlab berdi. Bu jarayon millat sajiyasining ikkiga ajralishini ta'minlaydi. O'z-o'zidan ayonki, ijtimoiy munosabatlardagi e'tiqod butunligi va mustahkamligi milliy taraqqiyot garovidir. Bo'lg'usi komissar xarakterida kommunistik axloq normalariga oid yana bir jihat – odamlarga ishonchsizlik bilan qarash, shubha, gumon hamda adovat qabarib ko'rinadi. Ifodada mazkur holat qahramonning o'y-xayollari tarzida beriladi:

«-Eshitib qo'ylaring! –dedi Soat alam aralash g'azab bilan. –Men Komissar bo'laman! Albatta bo'laman! Hammangni otaman! Bitta-bittadan otaman!»²³

Soat G'anievdagi yangicha e'tiqod belgilari shu manzaradan boshlanadi. Otasining o'limi oqibatida uning shuurida paydo bo'lgan qat'iy xulosa (otasini dushmanlar o'ldiradi. Boy, eshon, amaldorlar hammasi dushman) kommunistik tuzum manfaatlariga mos kelardi. Shu boisdan ham undagi maqsad-intilishlar sho'ro tarbiyasi misolida maromiga etadi. Muallif qahramon ruhiyatini tipik sharoit bilan bog'liq holda yoritir ekan, ifoda aniqligini birlamchi o'ringa ko'taradi. Adabiyotshunos A.Rasulov adab asarlaridagi badiiy aniqlikka urg'u berar ekan: «Dunyoning ishlari», bir qaraganda, juda oson yozilganday ko'rinadi: muhimi hamma qahramonlar tanish. Lekin bittagina detalni aniqlash uchun yozuvchi olam-jahon aziyat chekishi mumkin. Qissada Acha xolaning olti qirrali toshi haqida gap bor. Yozuvchi bu tosh muhra deyilishini aytgan. Ammo muhra so'zini bilib olish uchun u o'nlab lo'lilarga fol ochtirgan, avranib-avragan (muhrani bilib olgan)»²⁴ deb yozadi.

²³ Ўша асар. –Б.34.

²⁴ Кўрсатилган адабиёт. -Б.396.

Ma'lumki, insoniyat tafakkuri taraqqiyoti milliy an'analarning ham rivojlanib borishiga imkon tug'diradi. Negaki, ong, saviyaning takomillashishi ma'naviy talab, ehtiyojlarni ham o'zgartirib yuboradi. Shu tarzda xalq turmush darajasi, odat va ko'nikmalari ham jiddiy yangilanadi. Aslida milliy an'analar tarixi odamzod fikrlash doirasining uzviy qismi hisoblanadi. Binobarin, adibning yirik asari –«Ikki eshik orasi» va «Tushda kechgan umrlar» romanlarida talqin qilingan to'y manzarasi mushtarak milliy belgilarga egaligi bilan bir qatorda badiiy makon va zamonda o'zaro tafovutlanadi. Ikkala badiiy polotnoni ham bog'lab turadigan xususiyat – milliy marosim tasviri uch qahramon talqinida berilishidir. Mazkur uslubiy manera bir tomondan, voqelikni turfa nuqtalardan estetik baholashga sharoit tug'dirsa, ikkinchi tomondan, tafsilotni butun murakkabligi, ikir-chikirlarigacha qamrab olishga yordamlashadi.

«Yong'oq pishgan kezlari uyimizda to'y bo'ldi. Abduvalining dadasi «Tuya» satarosh bostirma panasida qo'y so'yib, oyog'idan olma shoxiga osib qo'ydi. Hovlining o'rtasida chuqur qazidi. Besh-oltita erkak «ha bo'l, ha bo'l» qilganicha eshikdan qiyalatib dashqozon olib kirishdi. Boyagi chuqurga o'rnatishdi. Biz ham yasanib olganmiz. Dadam ataylab Toshkentga tushib, menga yangi kostyum-shim, oyog'imga botinka olib kelgan. Boshimda yap-yangi baxmal do'ppi...

Qorong'i tushar-tushmas tumonat odam to'plandi. Bashang kiyingan erkaklar, yasan-tusan qilgan xotinlar...

...qarasam hovli o'rtasida lovullab gulxan yonayapti. Kattakon to'nkadan charsillab olov sachrayapti. Doshqozon boshida kuymalanayotgan sariq xotin – Abduvalining oyisi gulxan atrofida irg'ishlayotgan bolalarga qo'lidagi cho'michni o'qtalib baqiryapti:

-Yonib ketasan, tinmagur taka! Yonib ketasan!

Dadamni tanimay qolibman. Vuy! SHu – o'zimning dadammi? Egnida havorang kostyum, boshida yap-yangi chust do'ppi. Mo'ylovi tekis tarashlangan. Ie, dadamning shuncha ordeni bor ekanmi? Bitta... ikkita... uchta...»²⁵

²⁵ Хошимов Ў. Икки эшик ораси. -Т.: Шарқ, 2000. –Б.106-107.

Muzaffar tilidan bayon etilgan to'y tasviri o'zining soddaligi va tiniqligi bilan ajralib turadi. Undagi milliy an'ana ob'ektiv kategoriya sifatida obrazni to'ldiradigan, hayotiy tafsilotlarning hissiy qamrovini belgilaydigan estetik birlik ifodalanadi. Yorqin taassurotlar bo'yoqdorligi va sifatlovchilarning tabiiy shamoyili voqealar rivojini estetik markazga yo'naltiradi. Ushbu tushunchada epizodlarni saralash, uyushtirish va g'oyaviy-badiiy jihatlarni jamlash ustuvorlik qiladi. To'y tafsilotlari manzaralari yoshgina bolakayning kuzatishlari hosilasidir. Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, marosim bilan bog'liq ichki nutq aynan bola tilidan berilishi ifoda madaniyatining yetakchi holatni atroflicha yoritish imkoniyatini yaratadi, monologik ong zahirida tiniq bir samimiyat, qiziquvchanlik va sinchkovchanlikka moyillik badiiy hujayralarni shakllantiradi. Hali voqealar rivoji va uning badiiy markazini tashkil etadigan an'anaviylik mazmunini to'la anglab etmagan, biroq milliy rasm-rusumlar tabiatida xalq zakosiga xos ulug'vorlik yotganligini idrok etgan Muzaffar hikoyasida epik izchillik sezilmaydi. Voqeliklar bolalarcha tasnifi muallif estetik tamoyillarida uyg'unlashib muayyan poetik maqsad – milliy aqidalarga bo'lgan munosabatni aks ettiradi. Yozuvchi to'y lavhasini chizar ekan yosh xususiyatlarga xos talab va taklifni ham yoddan chiqarmaydi. Mazkur jihat tadqiqotning tabiiy oqimini asrashga yordam beradi. Hatto qo'llangan badiiy shtrixlar, xarakterli belgilar, yorqin tafsilotlar bolalik psixologiyasidan o'sib chiqadi. Ifodadagi primitiv me'yorlar ham millat tiyatini to'laroq tasavvur etishga monelik qilmaydi. Ayni paytda ma'naviy qadriyatlarga munosabat Muzaffar qiyofasida tavsifiy alomatlarni mujassamlashtiradi.

«Tushda kechgan umrlar» romanida esa muallif marosim jarayonini o'zgacha miqyosda suratlaydi. To'g'rirog'i, to'y tafsilotlari rus millati vakili – Grisha tomonidan sharhlanadi:

«Bularning to'yi g'alati bo'larkan. Bir kun oldindan domning tagida kechasi bilan g'ovur-g'uvir. Shovir-shuvir... Terak shoxiga minginchi lampochka osilgan. Birovi sabzi tozalayapti. YAna bittasi ketmon bilan er kovlab yotibdi. Nariroqda qozon! Shunaqangi kattaki, borsh pishirsang, butun boshli polkka etadi. Kechasi bilan dimog'iga allaqanday notanish hidlar kirib, mijja qoqmay chiqdi.

Endi ko‘zi ilingan ekan, allaqanday dahshatli tovushdan uyg‘onib ketdi. G‘art-g‘urt! Zum o‘tmay, afrika qabilalarining tam-tamiga o‘xshagan tovush ham qo‘shildi. Nuqul bang‘illaydi!

Grisha yuragi gupillab, deraza oldiga bordi. Ochib qarasa, chiroqlar ma’shal. Ustiga oppoq dasturxon yozilgan uzun-uzun stollar qo‘yilgan. Shundoq deraza tagida bittasi ikki quloch keladigan mis trubani g‘arillatyapti...

Hali deraza sharaqlab ochilganda ko‘zi tushgan ekanmi, qozon tepasida turganlardan bittasi qo‘l silkib shang‘illadi:

-Tushaver, sosed! Palov tayyor!

Sahar-mardonlab ko‘zi uchib turibdi-da, palovingga!

...Stolda o‘tirishini tomosha qilsang bularning! Xudo haqqi, qoshiq ushlashni bilmaydi! Oshni qo‘lda eydi. Qo‘da! Chollar-ku mayli, boshqalar-chi? Boshlarida shlyapa, bo‘yinlarida galstuk, oshni qo‘li bilan eydilar. Ertalabdan bir lagan palovni urib qorni yorilib ketmaganini! Osh eb bo‘lib, yuziga fotihayam tortadi. Naq kinoning o‘zi. Xudo haqqi, dekoratsiya kerakmas!»²⁶

Keltirilgan parchada voqealar borishi analitik xarakter kasb etadi. Qahramonning kinoyaviy, istehzoli nutqi tabiiy asoslarga ega. Negaki, Grigoriy O‘zbekistonga yordam berish uchun kelgan mutaxassis sanaladi. Unda allaqachon millat haqida salbiy fikr uyg‘otilgan. Shunday ekan qahramon nutqida o‘zbek xalqiga bo‘lgan nafrat zohir topadi. Uning fikricha, hamma o‘zbeklar poraxo‘r, bosmachi, o‘g‘ri. Shu tariqa sobiq Ittifoq miqiyosida shakllangan aqida – o‘zga millatlarga bepisandlarcha munosabat tadqiq sahniga chiqadi. Personaj kuzatishlarida voqelik silsilasi muayyan izchillikda beriladi. Estetik mezon-hodisalarni o‘z qarichi bilan o‘lchashi obraz tabiatiga tashqi tavsif alomatlarini singdirish bilan bir qatorda millat an‘analarining davrga hamohang evrilishlarini ham qamrab oladi. Tasvirdagi uslubiy-sintaktik parallelizm an‘analarning millat hayotiga ta’siri, ijtimoiy-falsafiy-ma’naviy qirralarini jipslashtiradi. Adib ishlanishlarida mantiqiy ta’kidlarning tez-tez qo‘lanishlari tavsifiy

²⁶ Хошимов Ў. Хадикли тушлар. Сайланма. Икки жилдлик. 2-жилд.-Т.: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти,2002. –Б. 39-40.

munosabatlarning ma'rifiy salmog'i hamda tarbiyaviy ahamiyati badiiy mezonni belgilaydi. Millat mentalitetiga xos an'ana talqini va falsafiy umumlashma obraz tabiatining psixologik yo'nalishini iste'foda etadi. Badiiy aniqllovchilar to'y tafsilotlari yaxlitligini to'ldirish bilan birga e'tiqod hamda ma'naviyatning og'riqli nuqtalarini ham izohlaydi. San'atkorining muvoziy g'oya chiziqlari ziddiyatini bo'rttirishi davrning umumlashgan ko'rinishini shakllantiradi.

Ikki asardagi psixologik lavhalar tabiatini umumiy belgilar birlashtirib tursada, zamon ruhining millat an'analarga ta'siri ularning o'zaro tafovutlanishini ko'rsatadi. Moddiy-ma'naviy asos ham urf-odatlariga, ham odamlar ruhiyatiga o'z muhrini bosadi. Shu nuqtai nazardan «Tushda kechgan umrlar» romanidagi milliy an'ana yangicha odat va ko'nikmalar, rasm-rusum va udumlar bilan boyiganligi urg'ulanadi. An'analarning zamonaviy talqini yosh avlod ongiga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir o'tkashishi mumkin. Xususan, nahor oshi, qiz bazmi singari an'analardan bir tomondan, ijtimoiy qatlamlarni uyushtirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, yoshlar tarbiyasiga salbiy aqidaparastlikni singdirishi mumkin. Buni yaxshi idrok etgan O'.Hoshimov milliy an'analarning gumanistik mohiyatini poetik tahlil markaziga yo'naltiradi. Obraz va obrazlararo munosabatning ma'nosini to'ldiradigan, izohlaydigan hamda tartibga soladigan spetsifik belgilar xalq sajiyasining umumiy qiyofasini belgilaydi.

Yozuvchi O'.Hoshimov asarlaridagi ko'pqatlamlilik eng avvalo muallifning nutqiy foydalanish darajasida namoyon bo'ladi. Uning ijodiy uslubi adabiyotning bosh mezoni hisoblangan milliy qadriyat va badiiy shartlilikning o'zaro munosabatiga asoslangan. Ifoda usuli qudrati yangilik, originallikda emas, balki voqealar hayotiyliigi, tafsilotlar uyg'unligi negizida rivojlanadi. Roman kompozitsion tuzilmasida hissiy-tahliliy uslub ustuvorligi lirik hissiyotga moyillik bilan qorishib ketadi. Xususan, jamiyat va a'zo o'zaro munosabatlarida milliy an'ananing vazifadoshlik xususiyatlariga ko'proq urg'u bergan nosir badiiy maqsadlarining tayanch nuqtasini e'tiqod erkinligi tashkil etadi. Shu ma'noda yozuvchi eng razil, qabih qahramonlarni ham qoralamaydi, balki ularning hissiy-ruhiy-psixologik holatlarini anglashga intiladi. E'tiqodsizlik, manqurtlik fojiasi va

ularning sabab-oqibatlari muallif talqinida eng ayanchli muammoga aylanadi. Binobarin, «Tushda kechgan umrlar»da Komissar «o'n besh yoshimda chekist bo'lganman» deya ta'kidlaydi. Qahramonning keyingi mulohazalari mushohadani to'ldiradi: chekist haqiqiy chekist bo'lib tug'ilishi kerak. Ko'rinadiki, san'atkor Soat G'aniev qiyofasidagi ko'r-ko'rona e'tiqodni inkor etmaydi. Aniqrog'i, hukm-xulosa chiqarishni birlamchi vazifa deb hisoblamaydi. Yaqin o'tmishimizdan ma'lumki, kommunistik mafkura targ'iboti yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, kishilarda ishonch hissini uyg'otgan. Komissar ham yangicha e'tiqodni yoqlagan, farovon va ozod jamiyat haqidagi tasavvurlarga ishongan tipik umumlashma hisoblanadi. Undagi maslak insonni buyodkorlik ishlariga otlantirishga qodir quvvatga ega. Aslida qahramonning fojiasi ham jamiyat ma'naviy mezonlarining buzilishiga borib taqaladi. Shu nuqtada obrazning tipik sharoit hamda davriy o'zgarishlarga bog'liq holda shakllanishi oydinlashadi:

«Yugur-yugur! –deb o'yladi Komissar ensasi qotib. –Umringni uzaytirmoqchimisani? Xex! Ko'chani kesib o'tayotganingda paq etib mashina urib ketsa –tamom! Qarabsanki, eshiging oldida qo'shaloq tobut turibdi! Ikki qavatli uchastkang xotiningga qoladi. Darvoqe, ikki qavatli koshonani qanday qurdiykin, bu? Xo'p, professorsan. Xo'p, ana, oyliging sakkiz yuzdir. Sakkiz yuz so'm maosh bilan yuz ellik minglik qasr solib bo'ladimi? Poraxo'r! Hammasi poraxo'r! Tag'in bular yoshlarga adolatdan va'z o'qiydi. Mauzerni yo'ldan urganlar ham shunaqa domlalar! Yoshsan, professor, yoshsan! Aqalli, o'n besh yosh kattaroq bo'lganingdami? Elliginchi yillarda bir marta so'roq bersang, sichqonning inini ming tangaga sotib olgan bo'larding.»²⁷

Qahramonning ichki monologi undagi e'tiqodning bir necha qirralarini ochib beradi: «o'z-o'zidan gumonlangan chekist haqiqiy chekist emas».

E'tiqod muallif talqinida Soat G'anievning turmush tarziga aylanib ketgan. U hatto prinsip uchun onasidan ham voz kechadi. Biroq Komissar milliy an'analardan butunlay ajralgan shaxs fojiasini aks ettiradi. Shunga qaramasdan,

²⁷ Хошимов Ў. Сайланма. Икки жилдлик. 2-жилд. Ҳадикли тушлар. –Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002. –Б.209.

uning butun hayot tarzida ham kommunistik siyosatning, ham chekistlik a'molining alomatlari sezilib turadi. Jumladan, Sovmin xodimi bilan nahor oshiga borganda ham ikki nuqtada qahramonning haqiqiy chekistligi zohir bo'ladi.

«Komissar toqati toq bo'lib, mashinadan tushdi. Uyg'otishning oddiy usulini ham bilmaydi, bu galvars! Derazani mushtlash kerak! Mana bunday! Ha, barakalla! Darrov chiroq yondi.

Darvoza ortida sho'ltillagan qadam tovushi eshitildi.

-Kim? –dedi erkak kishi xavotirlanib.

Komissar ko'nglida g'urur hissini tuydi. Senga hisob berib o'tirish qoluvdi endi!

-Oching! –dedi dag'dag'a aralash.»²⁸

«Komissar miyig'ida kulib qo'ydi. «Demak, meni duch kelgan metro bekatiga tashlab ketasan! Gapir, Sovmin! Nega indamaysan? –dedi xayolan xitob qilib. –Xex! Albatta indamaysan-da! Yaxshilab titkilab ko'rilsa, o'zingning biografiyangdan ham xohlagancha illat topiladi!»²⁹

Nutqiy faoliyat Soat G'aniev qiyofasini oydinlashtiradigan muhim xususiyatlardan biridir. Aniqroq aytganda, qahramon o'y-xayollari o'z-o'zini fosh etadigan qurolga aylanadi. Dastlabki talqinda organ xodimining g'ururi va e'tiqodiga sadoqati qayta uyg'ongandek taassurot uyg'otadi. O'z maslagini haq deb biladigan chekist na jamiyatdagi o'zgarishlar, na milliy ma'naviyat ifodasini tan oladi. Undagi qorishiq tabiat: ishonchsizlik tuyg'usi, alamzadalik kayfiyati hamda nafrat hissi tipik manqurt xarakterini kasb etadi. Aslida qahramon ruhiyatini shakllantirish an'ana va zamon, milliy mentalitet va ongdagi jiddiy yangilanish mushtarakligidan oziqlanadi. Komissar obrazi takomili O'zbekistonga yordam uchun kelgan Grigoriy Vasilevni eslatadi, to'g'rirog'i ikki muhit, ikki millat turmush-tarzida voyaga yetgan qahramonlarni tor manfaatparastlik, xudbinlik, milliy an'analarni mensimaslik birlashtirib turadi. Biroq, rus yigitidan farqli o'laroq Soat G'anievning o'z maqsadi, e'tiqod tarzi mavjud. Ammo bu e'tiqod

²⁸ Кўсатилиган манба. –Б.210.

²⁹ Кутсатилган манба. –Б.211.

tarzi jamiyat uchun jiddiy xavf tug'diradi. Undagi ulkan ma'naviy-axloqiy muammolar teranlashishiga imkon yaratadi. Grisha esa kayf-safo, maishatni hayotning mazmuni deb biladi. Personajlarning fikr doirasidagi yakdillik milliy qadriyatlarga munosabatda ko'rinadi. Komissarda bot-bot uyg'onib turadigan g'urur hissi o'z davri kelishiga ishonch bilan yo'g'rilgan bo'lib, uning xarakteriga berilgan chizgilarda aks etadi. Taklif qilingan mutaxassis esa milliy e'tiqod, ma'naviyat hamda axloq tamoyillaridan yiroq bir kimsa.

Mazkur jihatlar ham qahramon nutqi vositasida tipik reallik kasb etadi. Undagi betayinlik, kalondimog'lik shtrixlari ortida ma'naviy muammolar yotadi. Qahramon ruhiyatidagi evrilishlar mazmun-mohiyatdan xoli yashash tarzini kasb etgan inson fojialarini ifodalaydi. Tabiiyki, milliy qadriyatlarni anglab yetmagan, ma'naviy e'tiqoddan uzoq kishigina o'zga xalq rasm-rusumlariga salbiy munosabatda bo'lishi mumkin. Shu tariqa Soat G'aniev va Grigoriy Vasilev timsollari bir-birini to'ldiradigan personalarga aylanadi. Darvoqe, inson hayoti ezgu maslak, aniq maqsadlar sari yo'naltirilmas ekan, uning asosiy kasbi yemoq-ichmoqdan iborat bo'lib qoladi. Bu esa o'z navbatida koinot gultoji, zamin mehvari deya ulug'langan odam sha'nining numerativ qadsizlanishiga olib keladi. Buni chuqur anglagan adib insonning ma'naviy-axloqiy qirralariga ko'proq e'tibor qaratadi. Jumladan, turfa xarakter, rang-barang fe'l-atvor tahlili vositasida ijodkor odam va olam munosabatlari ziddiyatlarining teranligini umumlashtiradi. O'z-o'zidan ayonki, O'. Hoshimov asarlarida qahramonlar ichki munosabati –voqea tadriji ona obrazi markaziy talqinini boyitishga yordam beradi. Shu tariqa o'zbek ayoli qiyofasi murakkablashib, millat iftixori ramzini ifodalaydi. Tarixiy muhit, ijtimoiy shart-sharoitlar fonida tasvirlanadigan xarakter tipologiyasi genetik o'sish-o'zgarishlardan oziqlanib, timsoliy ifoda munosabatlarini uyushtiradi. Uyushgan mohiyatga ta'sir o'tkazadigan yetakchi omil – milliy an'analar ham tafsilotlar hayotiyligini saqlashga , ham obraz tabiatini boyitishga yordamlashadi. Muallif voqealar silsilasida xotin-qizlarning o'rni va ahamiyatini yagona estetik markaz atrofida jipslashtirib, davr tabiati qatiga singdiradi. Nosir milliy an'analar ko'lami yordamida obraz tabiatining ikki qirrasini ochadi: bir tomondan, shakllangan

e'tiqod, ona timsolining umumiy sajiyasini aks ettirsa, ikkinchi tomondan, qadriyatlarga munosabat fe'l-atvor o'zgachaligini belgilab beradi. Demak, yozuvchi an'anaviylikning yashovchanlik xususiyatlarini tasvirlash bilan birga sof estetik qadriyatlarning insonlararo munosabatlariga ta'sirini umumlashtirishga muvaffaq bo'ladi. Aslida milliy ma'naviyat va ma'rifiy tarbiya ikki taraflama aloqadorlikka tayanadi. Birinchidan, har bir o'zbek qonida nasl-nasabi belgilaydigan millat sajiyasi yotadi. Ikkinchidan, mazkur tabiiy e'tiqod ijtimoiy-siyosiy evrilishlar zahirida yangicha shakl-shamoyilga ega bo'ladi. Bu ikki jihat yaxlit holda qahramon ruhiyati va faoliyatini bog'lab turadi.

Badiiy asarni qabul qilish jarayoni kommunikasiya turi sifatida o'quvchidan muayyan faollikni, ijodiy tasavvurini ishga solib, yozuvchiga hammuallif bo'lishlikni taqozo qiladi. Ayniqsa, dinamik prinsip asosiga qurilgan xarakterlar psixikasini, xatti-harakatlarining ruhiy asoslarini anglashda bu narsa muhim ahamiyat kasb etadi. Gap shundaki, bu xildagi qahramonlar ruhiyasi ularning muayyan hayotiy situatsiyalarda o'zini tutishlari, xatti-harakatlari va gap-so'zlari orqali ochiladi. Muallifning qahramon ruhiy holati haqidagi ma'lumotlari o'ta siqiq, asosan, mimik-pantomimik harakatlar, tashqi psixofiziologik belgilarni qayd etish bilan cheklangan bo'ladi. Boshqacha aytganda, o'quvchi qahramon xatti-harakatlarini, yuz-ko'z ifodalarini "ko'rish", gap-so'zlarini "eshitish" imkoniyatiga ega. Ya'ni, bu tipdagi qahramonlar ko'proq dramatik asar personajlari(deystvuyuyhyeye liso)ga yaqin turadi. Ayrim adabiyotshunoslarning buni psixologik tahlilning dramaturgik usuli deb atashlari³⁰ bejiz emas. O'quvchi saviyasi va badiiy tasavvur imkoniyatiga qarab bunday obrazni qabul qilishda bir aktyorday obrazga kirishi, rejissorday talqin qilishi yoxud oddiy tomoshabin darajasida qolishi mumkin. Ulug' rus adibi L.N. Tolstoy: "Har birimizda mavjudligi mumkin bo'lgan barcha xarakterlarning imkoniyatlari mavjud, shuning uchungina san'at ifodalagan xarakterlar bizga ta'sir qiladi"³¹, - deb yozgan edi. Shundan kelib chiqsak, obrazni qabul qilish darajasi o'sha mavjud imkoniyatlardan qay darajada foydalana bilishga bog'liq ekani anglashiladi. O'z-o'zidan ayonki,

³⁰ Ковалев В.А. Поэтика Л.Н.Толстого.-М.,1983.-С.100

³¹ Шу жойда.-С.21

kitobxon ongida aks etgan obraz uning statik holati(yozuvdagi ifodasi)ga nisbatan ancha keng. Bu narsa tabiiy ham, chunki yozuvchi qahramon ruhiyatiga kirib asar to'qimasida harakat qiladi. Aniqrog'i, qahramonga "evrilgan" (perevoplohyeniye, vjivaniye) yozuvchi uni *o'zida mavjud psixologik imkoniyatlar doirasida yaratadi*, tirik odamni kuzatgandek kuzatadi-da, sirtidan tasvirlaydi. O'zi yaratgan qahramon ruhiyatini juda yaxshi bilgan yozuvchi, tabiiyki, asarni yozayotganida (yoki o'z asarini o'qiyotganida) beixtiyor obrazga kiradi va qahramonini *g'oyat keng tushunganidan* har qanday tafsilotni ortiqcha hisoblaydi. Bu, bir tarafdin, ijodiy aktning g'ayrushuriy tomoni bilan izohlansa, ikkinchi tarafdin, anglangan ijodiy priyom sifatida ham bo'y ko'rsatadi. Masalan, A.P.Chexov: "Men yozayotgan vaqtimda o'quvchi hikoyada yetishmayotgan subyektiv unsurlarni o'zi qo'shib olishiga umid qilaman"³², - deb yozadi.

Badiiy adabiyot va san'atda realistik tamoyillarning hukmron mavqye egallashi barobari roman janrining gurkirab rivojlanishi kuzatiladi. Sababki, real voqyelikni badiiy tadqiq etish, odam va olam haqidagi qarashlarni butlashu yaxlit ifodalash imkoniyatlarini berishi jihatidan romanga teng keladigani yo'q. Estetik prinsiplarning o'zgarishi, tabiiyki, romandan ham shunga mos o'zgarishni, moslashishni talab qiladi. Aksariyat yirik romannavislar, mutaxassislar yangi tipdagi romanning maydonga kelishida shotland adibi V.Skottning katta xizmati borligini ta'kidlaydilar. Xususan, Balzak "Insoniyat komediyasi"ga yozgan so'z boshida V.Skott haqida: "On vnes v nego dux proshlogo, soyedinil v nem dramu, dialog, portret, peyzaj, opisaniye; on vklyuchil tuda neveroyatnoye i istinnoye, eti elemento' eposa, i podkrepil poeziyu neprinujdennostyu samo'x prosto'x razgovorov",³³ - degan edi. Demak, Balzakning fikricha, V.Skottning janr takomilidagi buyuk xizmati shuki, u romanda barcha adabiy turlarga xos xususiyatlarni uyg'unlashtirdi. Adib haqida shunga o'xshash fikrni boshqa bir romannavis-V.Gyugo ham ta'kidlab aytgandi.³⁴ Har ikki adib ta'kidlayotgan sintetiklik realistik romanga xos eng muhim xususiyatlardan biridir. Zero, realistik

³² Кўчирма манбаси: Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы.-М.,1988.- С.167

³³ Бальзак О. Собр.соч.: В 12 т.- М.,1951.- т.1.- С.5

³⁴ Гюго В. Сочинения: В 15 т.- М.,1956.- т.14.- С.50-52

roman asosiga qo'yilayotgan problematikaning badiiy tadqiqi uchun ayni shunday sintetiklik eng optimal imkoniyatlarni taqdim etadi.

O'z vaqtida V.Skott romanlarini tadqiq etgan B.G.Reizov ham ularni "sintetik" deb atagan edi. Olimning shotland adibi romanlari tahliliga tayanib aytgan fikricha, roman san'atining uch unsuri–tavsif (opisaniye), rivoya va dialog asarda zarur nisbatlarda birikishi hamda o'zaro uzviy aloqada bo'lishi lozim.³⁵ Anglashiladiki, B.Reizov "sintetiklik" haqida gapirarkan ko'proq asarning tashqi qurilishini nazarda tutadi. Xuddi shunga o'xshash yondashuv R.Uellek va O.Uorrenlarning qarashlariga ham xos. Ular rivoya tabiati va turlari haqida to'xtalib, romanga "an'anaviy-qorishiq" rivoya xos, degan fikrni bildiradilar. Qorishiq deyilishining boisi esa unda "epik hikoya qilish" va "pyesa" xususiyatlarining aralash holda zuhur qilishidir. Amerikalik tadqiqotchilar "an'naviy-qorishiq" rivoyada ikki tomonga—"romantik-kinoyaviy" va "obyektiv" rivoyaga tomon og'ish mumkinligini ta'kidlaydilar.³⁶ Tabiyiki, bu og'ishlarning birinchisida hikoya qilishlik, ikkinchisida dialog salmog'i ustunlik qiladi. Rivoyaning ikkinchi xilini "obyektiv" deb nomlasharkan, tadqiqotchilar uning "dramatik" deb nomlanishini ma'qullamaydilar, sababki, bu holda asar to'laligicha dialoglardan tashkil topishi lozim bo'ladi,—ya'ni, istiloh tushuncha mohiyatiga mos kelmaydi. Ayni shu nuqtadan R.Uellek va O.Uorren fikrini davom ettirib ko'raylik. Demak, romanga xos rivoyaning "obyektivlik" tomon og'ishida muayyan chegara bor, ya'ni, agar asar to'laligicha dialoglardangina tashkil topsa, qarshimizda roman emas, pyesa namoyon bo'ladi. Aksincha holda ham, ya'ni, asarda dialog (kengroq, dramatik element) bo'lmagan taqdirda ham, tabiiy, klassik tushunchadagi roman mavjud bo'lolmaydi (shunday atalaverishi mumkin, albatta). Zero, roman o'zining klassik tushunchadagi— "yangi davr eposi" (Belinskiy), "burjua eposi" (Gegel) sifatidagi ko'rinishini shaxsning jamiyatdagi maqomi o'zgargan, u o'zini o'z holicha butun bir olam sifatida idrok eta boshlagan bir sharoitda shakllantirdi. O'zini alohida olam sifatida idrok etgan shaxsning jamiyat bilan, olam bilan

³⁵ Рейзов Б.Г. Творчество Вальтера Скотта.- М.,1965.- С.458

³⁶ Уэллек Р., Уоррен О. Теория литератур.- М.,1978.- С.240

ziddiyatlarini badiiy talqin qilishu yo'qotilgan epik butunlikni tiklash klassik romanning bosh muammosi bo'lib qoldiki, shu ma'noda u "yangi davr eposi" sanaladi. Shu bois ham roman markazida shaxsning hayoti, uning ziddiyatlari-yu to'qnashuvlari turadi. Nemis faylasufi Shelling roman voqeani eposdan, taqdirni dramadan oladi, deganida ayni shu narsani nazarda tutgan. Ko'ramizki, "sintetiklik" romanning tashqi qurilishidagina namoyon bo'lib qolmaydi, bu uning ichki tabiati bilan bog'liq xususiyatdir. Zero, epik butunlikni tiklashga intilayotgan shaxs deganimiz ijodkorning o'zi ekanligi, ushbu butunlik roman markazida turgan qahramonning tashqi olam bilan to'qnashuvlari (keng ma'noda shaxs dramasi) vositasida tiklanishi shunday deyishga asos beradi.

Adabiy turlar orasida "xitoy devori"ning yo'qligi, bir turga mansub asarda boshqa turga xos xususiyatlarning u yoki bu darajada namoyon bo'laverishi mumkinligi ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgandir. Bu narsa, ayniqsa, romanga xosdirki, adabiyotshunos V.Dneprov buni XIX asr romanchiligi misolida, o'tgan asrda yetishgan yirik romannavislar, faylasuflar fikrlariga tayangan holda juda yaxshi asoslab bera olgan.³⁷ V.Dneprov zamonaviy roman tabiati haqida: "Poeticheskaya sfera romana v svoym rode trexmerna—ona vklyuchayet v sebya ne tolko epicheskiye, no takje dramaticheskiye i liricheskiye izmereniya",³⁸ – deb yozadiki, bu o'rinda u to'la haqdir. Biroq uning janrga xos sintetiklik xususiyatidan kelib chiqib romanni alohida yangi adabiy tur³⁹ sifatida ta'riflashiga qo'shla olmaymiz. Qo'shilmasligimizning sababi avvalgi bobda aytganimiz romannavisning ichki ehtiyoji bilan bog'liqdir. Bizningcha, o'sha ehtiyojning qondirilishi ijodkordan epik tafakkurni, aniqrog'i, uning zamonaviy ekvivalenti bo'lmish romaniy tafakkurni taqozo qiladi. Zero, dunyoni butunicha va o'zini uning bir qismi sifatida ko'rgan holda uning mohiyatini anglash – mantiqiy butunligini tiklashga yo'naltirilgan ijodiy faoliyatgina bu ehtiyojni qondirishi mumkin. Shunga ko'ra, biz romanni o'zida dramatik va lirik turga xos xususiyatlarni uyg'un mujassam etgan epik janr deb tushunamiz.

³⁷ Днепров В. Идеи времени и формы времени.- Л.,1980.- С.100-133

³⁸ Шу асар.- С.134

³⁹ Шу асар.- С.100

Realistik ijod tabiati shundayki, san'atkor voqyelikni oddiygina tasvirlab yoki u haqda mutlaq betaraf hikoya qilib qololmaydi. Zero, realist san'atkor o'zi tasvirlayotgan voqyelikni bilish, unga o'z munosabatini bildirishni ijodning birlamchi maqsadi deb biladi. Realistik adabiyotning yetakchi janri bo'lmish romanda lirik ibtidoning mavjudligi, avvalo, shu narsa bilan izohlanishi mumkin. O'z vaqtida V.G.Belinskiy bu haqda: "Ham malo naslajdatsya – mo' xotim znat: bez znaniya dlya nas net naslajdeniya",⁴⁰ – deb yozgan edi. Tanqidchining bu gapi ijod ahliga ham, o'quvchilarga ham birdek taalluqlidir. Yaxshi kitobxon romanda tasvirlangan voqealar yoki to'qnashuvlar shiddatidangina emas, zo'riqib ishlayotgan tafakkurning ojiz qolgan choqlardagi to'lg'onishlari-yu inkishof onlaridagi qudratidan-da zavq ola biladi.

Cho'lpon "Kecha"da zamonaviy roman janri beruvchi noyob inkoniyatlardan mohirona foydalanadi. Epik, dramatik va lirik unsurlar uyg'unligi romanda bilish jarayonining bevosita tasvir jarayonida amalga oshishini taqozo qiladi. Buning muhim estetik samarasi shundaki, yozuvchi tayyor bilimlarni bayon qilish qusuri–didaktimizdan asosan qutuladi, o'quvchiga sezilar-sezilmas ishoralar beradi-da, uni o'zi bilan birga o'ylashga majbur qiladi. Bu narsa, xususan, konkret sahna-ko'rinishlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Asardagi voqealar silsilasida 80-yillarga kelib «o'zbek ishi, paxta ishi»ga oid qarashlar, voqealar ijtimoiy muhitga hukmron bo'lib, «adolat o'rnatish» uchun qadam ranjida qilgan shaxslarni ma'naviy qiyofasi ochib tashlangan. Xalqimizning urf-odatlarini, yetuk iste'dodli, vatan va millat g'ururini himoya qiluvchi rahbarlarimizning ayanchli qismati ham o'z ifodasini topgan. «Asarda, - deb qayd qiladi S.Mirzayev, - 80 yillarning ikkinchi yarmida Moskvadan «adolat o'rnatamiz» deb O'zbekistonga kelgan desantchilar zulmidan azob chekkan sof vijdonli, halol o'zbek dehqonlari obrazi yaratilganligini» yozadi.

To'g'ri, bu o'rinda jasoratli, irodasi bukilmas, mehnatkash inson Shomansur Shomatov obrazi o'sha ijtimoiy muhitning qurboni sifatida namoyon

⁴⁰ Белинский В.Г. Полн.собр.соч.- М.,1955.- т.6.- С.272

bo'lgan! «Otang Shomatov Mansur pripiska qilgani, katta miqdorda pora olib, pora bergani uchun qamoqqa olindi...- Sizlar adashyapsiz, mening otam unaqa odammas, bir umr halol ishlagan». Bu o'rinda otasining begunohligini isbotlash uchun tinimsiz yugurgan, ammo tergovchi Shevelev, «o'zbekning boshiga qiron solish uchun kelgan general Alebarsumyan kabi shaxslarning maqsadi, ma'naviy qiyofasi, vahshiylik tismoli ekanligini voqealar zahirida Ilhom Shamatov bilan ular o'rtasidagi suhbatlarda yanada yorqinroq namoyon bo'ladi.

Asarda ijtimoiy muhit ta'sirida xarakteri shakllangan Soat G'aniyev obrazi ham juda haqqoniy tasvirlangan. Uning xarakteridagi bo'yin egmaslik, cho'rt kesarlik, shafqatsizlik bolaligidayoq mavjudligini voqealar tasvirida ko'ramiz: «- Ha –a, kamissar! Qani, bir g'ayrat qil-chi, ko'ramiz suvga teskari suzish qanaqa bo'larkan!... Soat tag'in oqimga qarshi suzishga tushdi... Bora-bora qo'llaridan mador ketganini, oyoqlari uvishib qolganini sezdi... o'z yo'liga oqib yotgan suvga teskari suzish yaxshi emasligini idrok etdi... - Eshitib qo'yinglar! –dedi Soat alam aralash g'azab bilan. – Men komissar bo'laman! Albatta bo'laman! Hammangni otaman! «(O'sha asar, 34-36 betlar). Bu satrlarda komissar bo'lish orzusida yurgan, bolalikning beg'ubor damlarini o'z boshidan o'tkaziyotgan Soat G'aniyevning xarakteridagi xususiyatlar ifodalangan. Komissar umri davomida hayot oqimga qarshi yuradi. Asar boshida keltirilgan va ramziy ma'noda tasvirlangan. «O'z yo'liga oqib yotgan suvga teskari suzish yaxshi emasligini», - anglagan komissar hayot oqimiga qarshi harakat qiladi. Natijada, o'z farzandi ham unga qarshi chiqqanda azoblar iskanjasida qoladi: «Qarang, bu olifta intelligentni! O'z otangni tergashni kim qo'yibdi senga! Zamon qanaqa bo'lganini sen qayoqdan bilasan! Inqilob g'alabalarini himoya qilish kerakmidi? Mamlakatni ichki dushmanlardan tozalash kerakmidi? Bundan tashqari harbiy qasamiyodga sadoqat, ofiserlik burchi, degan gaplar bor!», - deya o'zini oqlashga harakat qiladi. Bu obraz haqida adabiyotshunos U.Normatov shunday yozadi: «Komissar bilan Nazira ikkisi ikki olam. Komissar – mustabid tuzumning hukmron mafkuraning qilich va qalqoni, tuzum yetishtirgan «siyosiy hushyorlik» yozuvlik, shafqatsizlik timsoli. Nazira esa nafosat, poklik ramzi»⁴.

Asar davomida komissarga xarakter jihatidan butunlay teskari bo'lgan Nazira oilasida yaxshigina uy bekasi, vafodorlik yo'lida o'z eriga sadoqatli, farzandlarining sevimli onasi sifatida ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Nazira hayoti davomida birov bilan qarama-qarshilikka bormagan, hatto erining ishlariga umuman, aralashmagan beozor inson kabi gavdalanadi. Hatto umri so'ngida ham osongina «jon taslim» etadi. Bu holatni yozuvchi quyidagicha tasvirlaydi: «Nazira hayotida hech kim bilan olishishni istamagani kabi o'limda ham ajal bilan tortishib o'tirgisi kelmaganidek osoyishta yotar, lablarida alamli tabassum qotib qolgan, go'yo oxir oqibat, bu azoblardan qutilganiga shukur qilgandek, sen bilan o'tgan umrimga ham, dunyoning ishlariga ham pushaymonman, deb ma'yus kulayotgandek edi...» (O'sha asar, 142-bet). Komissar Naziraning o'limidan o'kirib yig'laydi. Ammo bu yig'i uning umrida birinchi va oxirgisi bo'lib qolishini o'zi ham tasavvur eta olmasdi.

Romanda tasvirlangan ikki qutbning ya'ni, Soat G'aniyev yozuvlik, munofiqlik timsoli bo'lsa-da, Nazira-poklik, ezgulik elchisi sifatida namoyon bo'lib, ularning hayoti birga kechsa-da, Naziraning qalbida unga nisbatan kuchli nafrat tuyg'usi o'sib ulgurmagan. Shuning uchun ham: «— Jon dadasi, - dedi yolvorib. - Ertaga chaqaloqni tug'ruqxonadan olib chiqishadi. Umrim bino bo'lib sizdan hech nima so'ramadim? Iltimos, bir marta xo'p deng, boraylik... Mayli, ko'pmas, besh minutga... Bir og'iz tabriklab chiqing. Buva bo'ldingiz axir. — O'zing boraver! — Odammisiz o'zi nimasiz?! — dedi iltijo qilib. — Bir og'iz gap uchun o'z pushti kamaringizdan bo'lgan farzandingizdan kechasizmi?» (O'sha asar, 139-bet).

Asarning bu satrlarida Naziraning ichki dunyosidagi qarama-qarshilik yanada yorqinroq ifodalangan. Ammo uning qalbidagi alam asta-sekin yuzaga chiqa boshlaydi. Shunda ham o'zligini saqlab qolishga intiladi. Farzandiga bo'lgan onalik mehri kuchlilik qiladi.

Asardagi Rustam xarakter darajasiga ko'tarilgan obrazlardan biridir. Uning asosiy xususiyatlari o'z kundaliklari orqali yuzaga chiqadi. Rustam-sofdil, mehr-muhabatli o'z do'stlariga sadoqatli inson. Ammo adolatsizlik va shavfqatsizlikka

qarshi kurashuvchi timsol. Rustam xarakteri o'z tushlari orqali ham yoritiladi. Har bir kundalik voqealarini bayon qilib borar ekan, ma'lum bir voqealikdan keyin tush tasviri ham beriladi: «Xosiyatsiz tush ko'rdim. Otam hovlidagi so'rida yotganmish. Tagida ko'rpacha ham yo'q, quruq taxta ustida yotibdi. Dada ko'rpacha solib beray desam, indamadi. Nuqul yig'laydi. Dadamning yig'lashini hech ko'rgan emasdim. Qo'rqib ketibman. Yoniga yugurib borsam, dadam g'oyib bo'lib qopti» (O'sha asar, 81-bet).

Inson va tabiat chambarchas bog'liq bo'lgani kabi, ma'lum bir voqealar inson ruhiyatida yuz bergandek, hayot voqeligiga bog'lanadi. Rustamdagi bu kechinma, xuddi otasiga nohaq tuhmatning uyushtirishdan darak bergandek bo'lsa-da, bu tushning ta'birini ona vataniga qaytgandan keyin yanada teranroq anglaydi.

Rustam do'stlari qatori Afg'on o'lkasida yigitlik burchini davom ettiradi. U yerda inson hayotining achchiq lahzalarini guvohi bo'ladi «- Urush o'z yo'lga, hayot o'z yo'lga! Bizda nima ko'p; diztapliva, kerosin, Kamaz g'ildiraklari, alyumen qoshiqlar... Afg'onda nima ko'p; radio-texnika, yapon soatlari... Qarabsanki, savdo avjida ... Ofitserni sen desang ham «prokat»ga olgan xotinini siz degin» (83-bet). Ko'rinadiki, afg'on urushi davrida o'sha ijtimoiy muhitning yorqin ifodasi xaqida o'quvchida ma'lum bir tushuncha uyg'onadi.

Afg'on fojealarining asosiy vakillari sho'ro tuzmining namoyondalaridir. Faqat fojealar qurboni bo'lgan shaxslargina oddiy inson farzandlaridir. «... U yoqlarga ketganing uchun men ham aybdorman. Olib qolishim kerak edi. O'sha paytda qo'limdan kelardi... Mayli, qirq yil qirg'in bo'lsa, ajali yetgan o'ladi. Bilaman, Rustamjon! Sen azamat yigitsan...» - degan mazmunda otasidan xat oladi. Shu o'rinda Rustam xarakteridagi poklik, halollik, haqiqatgo'ylik kabi xususiyatlarni qay darajada o'zida mujassamlashtirganini do'sti Temur bilan bo'lgan suhbatda aniqroq tasvirlanadi: «... Masalan, men ertaga o'lib ketsam, ochinadigan odamim yo'q. Yetimxonada o'sganman. Men-ku, mayli! ... Ana! Qancha saldatlarning otalari o'rtaga tushib, bolasini boshqa qismga o'tkazyapti. Biri «kasal» bo'lyapti, biri boshqa bahona topayapti... Ofiserda nafs yo'q deb

o'ylaysanmi?» Bu o'rinda ma'lum bir shaxsning ma'naviy qiyofasi o'z ifodasini topgan.

Rustamning kundaliklari orqali Temur va Xayriddinning ham ruhiy kechinmalari ma'lum darajada yoritilgan: « - Xayriddin, - dedi kulib. – Esingdan chiqmasin, ukam... Mabodo menga biron gap bo'lsa, bir kalima Qur'on...» – deya uqtirishini o'zidayoq uning milliy g'ururi o'z ifodasini topgan. Insonning hayotga bo'lgan munosabatini qay darajada ekanligi qayd qilingan. Yoki, Xayriddinning Rustamga bo'lgan munosabatiga diqqatni qarataylik: « – Bilasizmi, jo'ra? – dedi gul terib yurganidan o'zi xijolat bo'lganidek, kulimsirab. – O'ylab qarasam, urush teskari haqiqat degani ekan. Odam bo'lging kelsa shafqatsiz bo'l. O'lging kelmasa – o'ldir. Qiziq-a, jo'ra» (91-bet). Urush shafqatsizlikni, zulmni namoyon qilib qolmasdan, yovuzlik sari yetaklaydi. Ammo Xayriddindagi beg'uborlik o'z muhitiga butunlay zid keladi.

To'g'ri, urush – insonni shafqatsizlikka undaydi. Ammo bahor urushni-da bilmaydi. Shuning uchun lolaqizg'aldoqlar, chuchimomalarni terib quvnab yurgan Xayriddin «urush teskari haqiqat», - deya xulosa chiqaradi. Xayriddin ham ezgulik, yaxshilik uchun kurashuvchi shaxs, hatto «dux»ni qo'lga tushirganda ham uni otishga jazm qilmaydi va o'zini qurbon qiladi.

Rustamning eng yaqin kishisiga aylangani uchun ham Xayriddinni unutish juda og'ir kechadi. Ichki iztiroblar iskanjasida qoladi. «Qayoqqa qoramay ro'paramga kelib, ma'yus jilmayib turaveradi. Ammo kelib-kelib, farishtadek beozor yigitning o'lishi...», - unga qattiq ta'sir etadi. Hatto do'sti Temur o'limidan keyin o'zida ular uchun o'ch olish hissi vujudga keladi. Rustam xarakterining o'ziga xos tomonlari yozuvchi tomonidan asosli yoritiladi. Adabiyotshunos H.I.Umurov ta'kidlaganidek: «... asardagi xarakterlarning» mantig'idan voqealar mantig'i, voqealar mantig'idan xarakterlar mantig'i kelib chiqadigan universal qonuniyatga bo'ysinadi»⁵.

Darhaqiqat, asarda tasvirlangan voqealar mantig'idan Rustam xarakterini qay darajada shakillangani ko'rsatilgan. Badiiy xarakter xaqida nazariyotchi olim Izzat Sulton esa; «Badiiy asarda tasvirlangan xarakterlar sujetning hamma katta –

kichik mamentlarni, tafsilotlarini tayin etadilar va o'z navbatida, hayotdan to'g'ri tanlab olingan yoki yozuvchi tamonidan to'qilgan mana shu tavsilotlar tufayli xarakterlar o'quvchi ko'z oldida butunligi va yorqinligi bilan namoyon bo'ladi»⁶, - deb yozadi.

Rustam obrazi asar sujetining barcha chiziqlarida o'z ifodasini topgan. Rustam ruhiyatidagi iztiroblarini yozuvchi yorqin dalillar asosida yuzaga chiqargan. Ayniqsa, eng yaqin safdoshlarining o'limidan so'ngi voqealar juda hayotiy tasvirlangan: «Qubba tomli uy xotinlarning upadonidek oppoq kukunga aylandi ... Allaqaysi burchakdan quloqlari shalpaygan, qo'rquvdan ko'zlari javdiragan olapar it chiqib keldi... Cho'nqayib o'tirgan kuyi, osmonga qarab g'ayritabiiy ovozda biri-ikki vovilladi. Keyin vovillashi o'z-o'zidan uvlashga aylanib ketdi. Bir daqiqa o'tdi... Besh daqiqa... umri bino bo'lib, bunaqa nolani eshitgan emasdim. Zum o'tmay vayrona ostonasida nimcha kiygan, ammo ishtonsiz bir yarim yoshlardagi o'g'il bola ko'rindi» (106-bet). Xuddi shu tasvirda urush xonavayron qilgan afg'on xalqining hayotini ham asosli talqin qilgan. Darhaqiqat, urushda mag'lublaru g'oliblar obrazi emas, adolatsizlik, shafqatsizlik qurboni bo'lgan xalqlar fojeasi juda go'zal tasvirlarda asosli talqin qilingan.

Iste'dodli yozuvchi O'tkir Hoshimov «Tushda kechgan umrlar» romanida hayotimizning salbiy tamonlari bilan bir qatorda, afg'on urushining fojeali tomonlarini hayot haqiqatidan kelib chiqib tasvirlagan.

Hozirgi jahon adabiyotshunosligida badiiy asar qimmat, darajasi birinchi galda unda hayot va shaxsning yangicha konsepsiyasi hamda badiiy talqini, ifodasiga qarab beliglanadi. Shu yuksak umumbashariy adabiy-badiiy mezonlar asosida yondashiladigan bo'lsa, O'.Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar» romani 90-yillar o'zbek adabiyotidagi jiddiy voqea, muhim yangilikdir. Bir qarashda roman yangi o'zbek adabiyotida muayyan an'anaga aylanib qolgan mavzu-muammolar — mustabid tuzum tanqidi, afg'on urushi, «o'zbeklar ishi» qurbonlari haqida bahs etadi. Biroq badiiy asarda, xususan, romanda yozuvchining yangi so'zi u yaratgan jonli va ko'lamli shaxslar timsoli orqali gavdalanadi. «Tushda kechgan umrlar» romanidagi talay personajlar, xususan, ikki yorqin

qahramon — Rustam va Komissar obrazlarini yozuvchining bugungi adabiyotimizdagi yangi soʻzi, badiiy kashfiyoti desa boʻladi.

Rustam — fojeyi shaxs. Katta hayotga endigina kirib kelayotgan, ona yurtning yetuk bir farzandi, sodiq fuqarosi boʻlishi, el-yurt uchun koʻp ishlar qilishi, sevgilisi vasliga erishib baxtli hayot kechirishi mumkin boʻlgan bu navqiron oʻgʻlon umri oʻn gulidan biri ham ochilmay turib xazonga aylanadi. Uning hayotini mustabid tuzum, totalitar rejim siyosatini yurgizganlar, afgʻon urushini boshlaganlar, «oʻzbeklar ishi», «paxta ishi» mojarosini oʻylab topgan gʻalamislar zavol etadi. Rustam halokati mana shu mudhish siyosatga zoʻr bir aybnoma kabi yangraydi.

Bilamizki, har qanday salmoqdor, ezgu gʻoya sanʼatkorona ifodasini topgan taqdirdagina qudratli kuch kasb etadi, asar gʻoyasi esa oʻquvchi qalbini asir etadigan yaxlit sirli-sehrli tasvir ohangi orqali pafosga aylanadi. «Tushda kechgan umrlar» romani «Kuz oʻlim toʻshagida yotgan bemorga oʻxshaydi» soʻzlari bilan boshlanadi. Ilk jumladagi mana shu maʼyus, mungli ohang asar davomida tovlanib, goh sokin, goh shiddatli tus olib vujud-vujudingizni qamrab oladi. Asar qahramoni qismati boshdagi oʻsha mungli soʻzlar bilan intihosiga yetadi. «Kuz oʻlim toʻshagida yotgan bemorga oʻxshaydi» jumlasini faqat qahramon qismatidagina emas, asarda aks etgan davr, muhit, jamiyatga ham daxldor — darhaqiqat, oʻsha yillari jamiyat bamisoli oʻlim toʻshagida yotgan bemordek talvasada. Oʻzbek adabiyotida bu qadar maʼyus, mungli romanni hozirgacha oʻqimagan edik. Roman bu jihatdan Hazrat Navoiyning eng xazin, mungli dostoni «Layli va Majnun»ni yodga soladi. Dostonni oʻqiyotib siz Layli bilan Majnun bu foni dunyodan baxt topolmasligini, cheksiz gʻam-anduhlardan faqat oʻlib qutulishlari mumkinligini his etib turasiz. «Tushda kechgan umrlar» romanida oʻzgacha davr, oʻzgacha vaziyat, muammo, mojarolar. Biroq bosh qahramon boshiga tushgan savdolardan qutulish yoʻli oʻsha — Rustam tipidagi oriyatli, vijdonli yigitni bu mudhish koʻrguliklardan oʻlimgina mosuvo etadi. Menimcha, chuqurroq qarasak, Rustam obrazi talqinida ekzistensializm falsafasining taʼsiri seziladi... Darhaqiqat, agar «Tushda kechgan umrlar» romanini ekzistensializm nuqtai nazaridan tushunmoqchi boʻlsak, Rustam

obrazi talqinida o'ziga tamomila «begona dunyo»da, o'ziga «dushman dunyo»da yashagan shaxs fojeasini ko'ramiz. Rustam o'zi yashayotgan dunyoda o'zini mutlaq «begona» his qiladi, o'z dunyosidan mantiq, hayotidan ma'ni topolmay qoldiki, ayni shu sharoitda uning qarshisida «hayot yashab o'tishga arziydimi?» qabilidagi absurdga xos savol ko'ndalang bo'ldi. Absurd falsafasining otasi Kamyu: «Inson ongidan tashqarida absurd mavjud emas. Uning o'limi bilan, boshqa barcha narsalar kabi, absurd ham yo'q bo'ladi», - deb yozadi. Ayni paytda, Kamyu insonning ixtiyoriy hayotdan ketishini ham yoqlamaydi, aksincha, uning talqinida «isyon o'lim emas, hayot manbaidir. Uning tub mohiyati — vayronkorlik emas, bunyodkorlik mantiqidir». Ya'ni, insonning isyoni voqyelikni o'zgartirishga, tartibsizlikni (xaos) uyg'un tartibga (garmoniya) keltirishga qaratilishi lozim. Shu bilan birga, Kamyu — pessismist, dunyoni muayyan tartibga, bir paytlar ma'rifatchilar o'ylagandek inson uni «aqlga muvofiq holga keltira olishiga» ishonmaydi (aslida, modernizm dunyoqarash sifatida ma'rifatchilikning to'la inkori bo'lib maydonga kelgan). Demak, Kamyu talqinidagi inson mavjudligining sharti bo'lmish «isyon» ham avvalboshdan absurd — sizif mashaqqatidan o'zga emas, u insonning o'zi uchungina kerak, uning o'z hayotida ma'ni bor deb o'ylashi uchun aldov, xolos. Ayni shu o'rinda «Tushda kechgan umrlar»dagi va Kamyu talqinidagi «absurd» orasida ulkan farq mavjudligi ko'zga tashlanadi. O'.Hoshimov umidvorlik hissidan mosuvo emas, uning uchun «absurd voqelik» jamiyat taraqqiyotidagi bir bosqich, «absurd tuyg'usi» shu bosqichda yo'lsizlikdan qiynalayotgan shaxs dunyoqarashi, kayfiyatidagi muvaqqat holat. Kamyu uchun esa, ma'lumki, absurd — universal hodisa, u absurd tushunchasini insoniyatning tongidan shomiga qadar, azaldan abadga qadar tadbiq etadi...

90 – yillarning boshiga kelib milliy ho'rlikni o'ziga xos ravishda his qilish yozuvchilar tafakkurida yangi tipdagi obrazlarni shakllantiradi. Buning natijasida ijodkorlar asarlaridagi qahramonlar tasvirida milliy ruh va milliy dunyoqarashga ega bo'lgan inson obrazining o'ziga xos tarzidagi badiiy ifodasi aks eta boshladi. Yangicha voqyelikni qabul qilish, uni tahlil etish va insonni har tomonlama tasvirlash ijodkorlar uchun oson kechmadi. Chunki “o'zbekning o'ziga xos

tabiatini, ko'nglidagi sezimlar va mayllarni aks ettirish g'oyat murakkabdir. Chunki o'ziga xoslik ichkariga ko'chdi. Bu hol tasvirning teranligini, badiiy nigohning o'tkirligini taqozo etadi. Milliylik masalasiga qaratilgan bahs munozaralar doimo adabiyotshunoslik diqqat markazida bo'lib kelganligining asosiy sababi millatning o'zligini anglashi va uni badiiy ifoda etish masalasi adabiyotning abadiy va an'anaviy mavzusi ekanligi bilan belgilanadi. O'. Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romanida sho'ro davri odamlarining besamar umri, zavol ketgan e'tiqodi tasvirlari orqali millat kishisining fojeali qismati aks ettiriladi. Romanning bosh g'oyasi o'zining aldanib yashaganini anglab yetmagan shaxs fojeasini ko'rsatishdan iboratdir. Yozuvchi asarida manfur siyosat tufayli millat boshiga tushgan fojea, turli xil bahona – sabablar bilan xalqning asl farzandlarini yo'q qilishga qaratilgan qatag'onlik amaliyotlarining ayrim ko'rinishlarini qalamga olar ekan, ana shu jarayonda faol ishtirok etgan qahramonning basir so'qir qiyofasini, fojeali qismatini tasvirlaydi. Romanning asosiy qahramonlaridan biri Komissardir. Uning asli ismi Soat G'aniyev bo'lsa – da, muallif uni ismi sharifi bilan emas, balki rasmiy tarzda Komissar deb tanishtiradi va asarni o'qish davomida uning bu tutumi to'g'ri ekanini anglay boramiz. "Bu odamning Soat G'aniyev degan ismi – sharifi bor. Biroq, ismi – sharifidan ko'ra Komissar degan laqab unga munosib. U shaxs emas, kasb, mansab, martaba, mafkura, siyosat odami.

Eng muhimi, bu tildagi "sovetlashgan" qahramonlar milliy koloritdan mahrum, oddiy insonlarga xos bo'lgan his – tuyg'ulardan ham bebahra, ongu shuurida har qanday topshiriqni so'zsiz bajarish lozim, degan tushunchadan boshqa hech narsa yo'q. Bunday tasvir yozuvchining yutug'i sifatida baholanishi mumkin. Bu qahramonning o'y – mushohadalari orqali biz Ikkinchi jahon urushining ayanchli fojealari bilan tanishamiz. Shuningdek, qatag'on siyosatining fojeali oqibatlarini tufayli qurbon bo'lgan qanchadan – qancha hurfikrlar, ziyolilar va ularning yaqinlari taqdirlaridan boxabar bo'lamiz. Qolaversa, sobiq ittifoqning inqirozi boshlangan 80 – yillarda "O'zbeklar ishi" nomi bilan tashkil etilgan navbatdagi qatag'onlik siyosati tufayli badnom qilingan xalqimizning beayb

farzandlari qismati, Afg'on urushida bevaqt nobud bo'lgan qanchadan – qancha yosh yigitlarimiz fojeali aks etgan lavhalar millat fojeasi darajasiga ko'tariladi. Milliy o'zligidan ayrilgan yosh avlodning ham ruhan, ham jisman nogiron bo'lib qolishi kabi hodisalar. O'. Hoshimov tomonidan romanga xos mushohada doirasida katta mahorat bilan tasvirlangan. Asarda aks etgan asr qismati millat peshonasiga bitilgan fojea sifatida talqin qilinadi. Komissar va Qurbonoy xola qatag'on yillarining vakili sifatida romanga kiritilgan bo'lsa, boshqa bir qahramon – Rustam turg'unlik davri farzandi sifatida talqin qilinadi. Yozuvchining Afg'on urushi fojealarini faqat ikki tomonlama bo'ladigan jang lavhalari tasviri orqali emas, balki, uning qahramonlar qismati va yuragida og'riqli nuqta bo'lib qoladigan ayanchli asoratlari badiiy tasviri orqali ko'rsatishi asarning ishonarli hamda o'qimishli bo'lishni ta'minladi. Roman Rustamning "Oxirgi kundaligidagi" yozuvlaridan boshlanadi: "Kuz o'lim to'shagida yotgan bemorga o'xshaydi. Oyoq ostida kasalmand xazonlar ingraydi.... Endi suv tubida shodon chayqalgan maysalar emas, xazon ko'milib yotadi... Yer-u ko'kni kafandek oppoq tuman cho'lg'aydi. Oq zulmat orasidan qarg'alarning xosiyatsiz fig'oni eshitiladi. Erta – indin osmonga motam libosini kiygan bulutlar chiqadi. Yer ustida uzoq charx uradi – da, achchiq – achchiq ko'z yosh to'kadi. Sim – sim yomg'ir yog'adi: to'rt kunlik umrida dunyoga sig'magan, oxir – oqibat jon taslim etgan tabiatga aza ochib, unsiz yig'laydi".

Qahramonning kundaligidagi so'ngi yozuvlari bilan boshlanayotgan ushbu dilgir peyzaj tasviri romanning ilk sahifasidanoq kitobxonga motam isini yog'diradi. E'tibor berilsa, "kundalik" da bitilgan ushbu manzara inson umrining tugab borishiga, uning orzulari yer bilan bitta bo'lib xazonlar singari ingrashiga, qalbini zulmat qoplab, dahshatli fojealar yuz berishiga ishora tarzida ramziy tasvirlarda ifoda etilgadi. Bu bitiklar o'z oldiga katta maqsadlar qo'ygan, bir dunyo orzular ichida yashayotgan yigitning emas, balki o'lim bilan yuzlashayotgan, og'ir dardni boshidan kechirayotgan, dardman kishining hayotga qarashlaridek ko'rinadi. Shunday qayg'uli va dilgir ohang, so'nggi yo'lga chog'langan kishining dil nolasi asarning boshidan oxirigacha kitobxonni sehrlab qo'yadi. Bu yozuvlarni

qahramon kundaligining boshlanishidagi so'zlar bilan solishtirganda "shudring tomchisidek musaffo qalbiga ilk muhabbat cho'g'i tushgach", "o'z xayolida muhabbat deb atalmish qasrni bunyod etgan" kabi tasvirning butunlay aksi ekanini ko'ramiz.

Yozuvchi O'tkir Hoshimov ham "Tushda kechgan umrlar" romanida qahramonlar hayotini inson shaxsiga yangicha yondashuv asosida tasvirlaydi. Romanda sho'ro mafkurasining tarbiyasini olgan kishilar taqdiri, fojeali qismati, aldangan e'tiqodi, millat farzandining shu davrdagi ayanchli umri aks ettiriladi. Romanning bosh bosh g'oyasi Sobiq ittifoq hamda Afg'oniston urushi tufayli o'zini aldanganligini anglay olmagan shaxsning fojeasini ko'rsatishdir.

UMUMIY XULOSALAR

O'tkir Hoshimov murakkab ijtimoiy-siyosiy evrilishlarga boy ijod etayotgan adiblardan biridir. Ong va tuyg'udagi muhim o'zgarishlar ayni paytda, ijodkor hayotiy qamrov darajasining kengligini ham ta'minlamoqda. Yozuvchi doimiy va davomiy ravishda turli janr hamda yo'nalishlarda o'z qudratini sinab ko'rdi. Ammo qaysi aspektda ijod qilmasin, millat mentaliteti, sog'lom e'tiqod, milliy an'analar hamda estetik qadriyatlarga munosabat san'atkor izlanishlarining asl o'zagi bo'lib qolaverdi.

O'tkir Hoshimov asarlari poetikasini tadqiq etish shunday xulosaga olib keladiki, muayyan ijodkorning faqat o'zigagina xos badiiy uslubi, eng avvalo shu ijodkor qalbini mavjlantirgan muammolar va g'oyalarda, uning mavzu tanlash va shunga mos syujet topishda, shu hayotiy mavzuni yuksak badiiyat bilan talqin eta olishda, yirik ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarni hayot haqiqatiga sodiq qolib tasvirlashda namoyon bo'ladi.

Nosir asarlarini ikki jihat birlashtirib turadi. Ulardan biri poetik evolyutsiyaga ega Ona siymosi tadqiqoti bo'lsa, ikkinchi xususiyat millat mentaliteti tasnifatidir. Mazkur ikki chiziq sinkretik xarakter kasb etadiki, uni bir-biridan ajratish nihoyatda mushkuldir. Shu boisdan ishda xarakter va milliy an'analar, badiiy qahramon va ma'naviy kadriyatlar dinamik yaxlitlikda talqin qilindi. Zero, ijodiy izlanishlarning tabiati milliy mustaqillik mafkurasini yaratishda, yosh avlodni mustahkam iymon-e'tiqod, yuksak ideallar bilan tarbiyalashda, ona Vatanga sadoqat ruhini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Agar badiiy asarni o'qish jarayonida kitobxon muallif bilan muloqotga kirishishini e'tiborga olsak, bu muloqotning amalga oshishi uchun lirik-subyektiv ibtidoning nechog'li katta ahamiyatga molikligi anglashiladi. Ilgari aytilganidek, biz nazarda tutgan lirik-subyektiv ibtido asarning har bir nuqtasiga singdirilganki, konseptual(bilvosita kompozision) butunlikni ta'minlashda juda katta ahamiyatga molikdir.

Voqea-hodisalarga salbiy munosabat, inkor ruhining kuchliligi, hodisaning dahshatli manzarasini keskin, qabariq tarzda chizib berish, hodisa mohiyatini bor ziddiyatlari, qahramon ruhiyatini butun murakkabliklari bilan o'quvchiga his qildirish O'tkir Hoshimov ijodiga xos fazilatlardan biri sanaladi. Shuningdek shaxs tabiatining ayrim jihatlarinigina aks ettiruvchi asarlar bilan bir qatorda, inson ruhiyati, borlig'iga xos umumiy xarakter-xususiyatlardan alohida chizgilarga o'tuvchi tasvir uslubini namoyon qiluvchi yo'nalish inson ruhiyatining keng olam ekani, uning hech qanday qolip-u andozalarga sig'maydigan, cheksiz, turfa holatlarini badiiy jihatdan inkishof etishga urinish singari yaratilgan badiiy asarlar haqiqatdan ham an'anaviy realizm qoliplarini yorib chiqib, adabiyotda yangi badiiy hodisalarga aylanmoqda.

Xususan, ushbu bitiruv malakaviy ishimizda yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlarga ega bo'lgan hozirgi o'zbek nasridagi o'ziga xos uslubga ega O'tkir Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar» romanini badiiy tahlil-u tadqiq qilish orqali joriylandi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, ishning mavzusi keng bo'lib, yana ham kattaroq darajadagi ilmiy yondashuvni talab etadi. Shu ma'noda bajarilgan ishni katta ilmiy izlanishlar sari olib chiqadigan bir urinish ekanligini ta'kidlash joiz. Nasib etsa, ishni magistrlik tadqiqoti sifatida davom ettirish maqsadidamiz.

Yuqoridagilarga tayanib shunday xulosalar chiqarish mumkin:

- milliy an'ana va ma'naviy aqida ijodkor fitrati, qahramon faoliyati hamda jamiyat ehtiyojini yagona badiiy maqsadga bo'ysundiradi;

- mavjud estetik salohiyat xarakter psixologiyasini teran ifodalash va jamiyat a'molini belgilash mezonidir;

- lirik hissiyot epik davrlararo bo'shliqlarni birlashtirib turadi. Aniqrog'i, rivoya qahramonining o'zaro aloqadorligi –umumiy sajiyasini ta'minlasa, lirizm oqimi obraz ichki dunyosini chuqurroq tavsiflaydi;

- shuuriy hissiyot va ijtimoiy munosabatlar uyg'unligi ham yozuvchi ijodiy tamoyillarini belgilaydigan, ham timsol evolyutsiyasini aniqlashtiradigan poetik ustqurma hisoblanadi;

-qahramon ruhiy dunyosi shakllanish bosqichlari hamda yaxlitligi milliy muhit – an’anaviylik, ma’naviyat va ma’rifat uyg’unligidan oziqlanadi;

-O‘.Hoshimov asarlarida xarakter va milliylik bir-biriga o‘tib turadi. To‘g‘rirog‘i, mazkur ikki tushuncha hayotni poetik tadqiq etishning muhim ikki qirradi sifatida o‘zaro izohlangan, dalillangan hamda tartibga solingan badiiylik darajasini yuzaga keltiradi;

-adib izlanishlarida ijtimoiy munosabat insonning ruhiy-psixologik faolligi hosilasiga aylanadi;

-muayyan obrazning xronologik takomili shakllangan e’tiqod barqarorligi, ma’naviy muhit ta’siri va axloqiy tamoyillar mushtarakligini tasvir markaziga ko‘taradi;

-san’atkor badiiy obraz yaratish jarayonida xususiylikdan umumiylikka – mushohadakorlik va sintetik ifodaga intiladi. Bu holat esa o‘z navbatida odamzod tiynatining milliy mentalitet bilan erkin birikuvidan hosil bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat –engilmas kuch. –T.: Ma'naviyat. 2008. – 173 b.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O'zbekiston, 1999. – 232 b.
3. Adabiyot ko'zgusi. Ilmiy to'plam. 1996. -T.: Adabiyot va san'at, 1996. - 181b.
4. Adabiy turlar va janrlar. I-jild. Epos. -T.:Fan, 1991. -382 b.
5. Baxtin M.M. Estetika slovesnogo tvorchestva. –M.:Nauka, 1986. –S.444.
6. Belinskiy V.G. Adabiy orzular. –T.:Adabiyot va san'at nashriyoti, 1977. – 180 b.
7. Mamajonov S. Saylanma: Adabiy-tanqidiy maqolalar. –T.:Adabiyot va san'at, 1981. 400 b.
8. Mirvaliev S. Nasr, davr, qahramon. -T.: Adabiyot va san'at, 1983.-240 b.
9. Mirzaev I. Tafakkur va nasr. –Samarqand: nashriyotsiz, 1993.-189 b.
10. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. -T.: Ma'naviyat, 2000. 156 b.
11. Normatov U. Ijod sehri. -T.: Ma'naviyat, 2006. -289 b.
12. Pospelov A. Vvedenie v literaturavedenie. –M.: Nauka, 1988. –234 b.
13. Rasulov A. Yangi zamon yangi qahramon. -T.: Adabiyot va san'at, 1978.
14. Sarimsoqov B. Badiiyat asoslari va mezonlari.-T: Fan, 2004. -194 b.
15. Uorren O., Uellek R. Teoriya literatury. –M.:Progress, 1978. –S.308.
16. Sharafiddinov O. El ardoqlagan adib. «Bahor qaytmaydi» to'plamiga so'nggi so'z. -T.: Fan, 1992.
17. Sharafiddinov O. El ardog'idagi adib. «Ikki eshik orasi» romanining VII nashriga so'nggi so'z. -T.: Fan, 2000. – 136 b.
18. Sharafiddinov O. Go'zallik izlab. –T.:Adabiyot va san'at, 1985. –340 b.
19. Quronov D. Adaiyot nadir? YOxud CHylponning mangu savoli. –T.; Ma'naviyat. 2006

20. Qo'shjonov M. Hayot va qahramon. -T.: Adabiyot va san'at, 1979. -366 b.
21. Qo'shjonov M. Hayot haqiqati va badiiy haqiqat. -T.: Fan, 1982. -60 b.
22. Qo'shjonov M. Elim deb, yurtim deb. -T.: Fan, 2000. -63 b.
23. Abdullaev O. Notanish orolga sayohat. // Guliston. -1991. -№3. –B.22-23.
24. Yo'ldoshov Q. Yoniq so'z. –T.; Yangi asr avlodi. 2006. 469 b.
25. Rasulov A. Yo'l boshida. ToshDU. Adabiyot masalalari. Ilmiy to'plam. №491.(2-qism) –B.37-47.

MUNDARIJA

KIRISH.....	
I BOB. IJODKOR IDEALI VA MILLIY QADRIYATLAR MUNOSABATI.....	
II BOB. MILLIY AN'ANALAR TASVIRI VA UNING OBRAZ XARAKTERI TAKOMILIDAGI BADIY FUNKSIYASI.....	
UMUMIY XULOSALAR.....	
FOYLANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	